

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**JAHON SIYOSATI VA TARIX FAKULTETI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**MAVZU: Nemis xalqi natsional - sotsializm va totalitarizm davrida  
(1933-1945)**

**Bajardi:** “Xorijiy mamlakatlar tarixi” ta'lif  
yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi  
Ro'ziyev Ilhom

---

(imzo)

**Ilmiy rahbar:** “Xorijiy mamlakatlar tarixi”  
kafedrasi o'qituvchisi Xasanov J

---

(imzo)

**Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi**

“Jahon siyosati va tarix”

fakulteti dekani

s.f.n.,dots. I.N.Bekmuratov

“Xorijiy mamlakatlar tarixi”

kafedrasi mudiri

t.f.n., dots. Y.A.Ismoilova

“\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2012 yil

“\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2012 yil

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>2-6</b>
<b>1-BOB. Germaniyaning 1933-1939 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli.....</b>	<b>7-34</b>
<b>    1.1. Nemis xalqining jahon iqtisodiy inqirozidan keyingi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.....</b>	<b>7-10</b>
<b>    1.2. Gitlerning hokimiyat tepasiga kelishi va natsistlar diktaturasining o'rnatalishi.....</b>	<b>11-15</b>
<b>    1.3. Natsistlarning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati va islohotlari.....</b>	<b>16-34</b>
<b>2-BOB. Nemis xalqi II-Jahon urushi davrida.....</b>	<b>35-53</b>
<b>    2.1. II-Jahon urushi davrida nemis xalqining ijtimoiy ahvoli.....</b>	<b>35-41</b>
<b>    2.2. Nemis xalqining urushda ishtiroki va umumiy ahvoli.....</b>	<b>42-51</b>
<b>    2.3. Urushning nemis xalqi turmush tarziga ta'siri.....</b>	<b>52-53</b>
<b>Xulosa.....</b>	<b>54-56</b>
<b>Foydalanilgan abbiyotlar ro'yxati.....</b>	<b>57-59</b>
<b>Ilova.....</b>	<b>60-68</b>

## Kirish.

**Tadqiqot mavzuning dolzarbliji:** O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan boshlab jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar ko'zga tashlana boshladи. Milliy tarix masalalarini ilmiy o'rganish sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi, shuningdek, uning turli varaqlarini partiyaviy bosim va mafkuraviy qoliplarsiz obektiv o'rganish uchun imkoniyatlar ochildi. Tarix fani oldiga muhim vazifalar – o'zbek xalqining tarixiy xotirasini tiklash, haqqoniy tarixini yaratish vazifasi qo'yildi.

Bu yo'naliшда o'zbek xalqi davlatchiligi tarixini o'rganish, uni xolisona tahlil etish muhim omillardan biri hisoblanadi. «...o'zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifasi... davlatchiligidan ilmiy nuqtai-nazardan asoslangan tarixini yaratishdir», - deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov<sup>1</sup>. Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayotida amalga oshiralayotgan tub islohotlar jamiyatimiz oldiga davlat siyosatining ustuvor yo'naliшlaridan hisoblangan ta'limni yangilash va yosh avlodni zamon talablariga javob bera oladigan barkamol inson etib tarbiyalash, ular ongiga mustaqillik g'oyalarini singdirishdek muhim vazifalarni qo'ymoqda. Maktab, maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim-tarbiya oluvchi har bir bolani zamon talabi asosida har tomonlama shaklangan shaxs bo'lib, jamiyat ishlarida to'la va faol qatnashishi undagi dunyoqarashning to'g'ri rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Chunki, dunyoqarash - kishilararo aloqa quroli, milliy boylik hamda tarbiya, maorif va ijodiyot uchun qudratli vositadir. Zotan ta'lim va tarbiyada hikmat ko'p .

Bola dunyoga kelgan kundan boshlab, davlat va hokimyat hamda ota-onazimmasiga uni sog'lom, aqli, xush xulqli qilib tarbiyalash vazifasi qo'yiladi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998. –B. 12.

Davlat va jamiyatning kelajagi yosh avlodni qanday tarbiyalashga va voyaga yetkazishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Millat tafakkuri , ma'naviyat va madaniyatni ko'rsatib beruvchi , jahon miqyosida tan olingan asosiy mezon – ilmiy salohiyatdir. Demak, kishilarni mukammal , yetuk inson bo'lib shakllanishida aqliy qobiliyat va ilmiy salohiyat katta o'rinni tutar ekan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Toki hayot davom etar ekan , ta'lif ham , tarbiya ham zamon o'rtaqa qo'yadigan yangi-yangi talablarga ko'ra muttasil ravishda o'zgarib , yangilanib borayapti. Faqat bu sohadagi dastlabki qadamlarni to'gri qo'yib olsak, poydevorni mustahkam qilib barpo etsak, men shunga ishonamanki , bugungi kunda bizning qilgan ishlarimizni ehtirom ila minnadorchilik tuyg'usi bilan eslaydi "<sup>1</sup> - deya e'tirof etadilar.

**Ishning maqsad va vazifalari.** Tadqiqot ishining asosiy maqsadi tarixning eng qora yillari sifatida muhrlangan II jahon urushi davrida , xususan natsional-sotsializm davrida nemis xalqining ijttimoiy-iqtisodiy ahvolini xolisona baho berishdir. Chunki II jahon urushidan so'ng urushning asosiy sababchisi sifatida nemis xalqi qoralangan. Lekin biz bundan yiroqmiz. Tadqiqot ishini o'rganish jarayonida shu narsaga amin bo'ldikki , natsizm siyosatidan birinchi bo'lib nemis xalqining o'zi aziyat chekkan. Biz tarixchilarning asosiy vazifamiz esa tarixiy jarayonga xolis baho berish va mustaqil fikrga ega bo'lishdir.

Tadqiqot ishining vazifalari esa turli davrlarda aynan shu mavzuda qilingan ishlarni o'rganish , taqqoslash va xolis fikrni bildirishdir. Buning uchun biz asosan rus , nemis , ingliz va o'zbek tadqiqotchi olimlari tomonidan qilingan ishlarni o'rganib chiqdik va taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ldik. Natijada o'rganilayotgan mavzuni davrlarga bo'lgan holda mukammal tadqiq qilishga harakat qildik. Tadqiqot ishining asosiy vazifasi esa bu mavzuga bildirilayotgan turli fikrlarni jamlab , manbalar va tadqiqot ishlarini o'rganib keng ommaga va

---

<sup>1</sup> Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998.-B.28.

xususan bu mavzuga qiziqadiganlarga haqiqatga yaqin bo'lgan faktlar asosida tarixni xolisona yetkazishdan iborat.

**O'r ganilganlik darajasi.** Bu mavzuda turli davrlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan bo'lib , biz bu mavzuni o'r ganish jarayonida aynan bir faktga nisbatan bir-birini inkor etuvchi fikrlarga juda ko'p marta guvoh bo'dik. Shu sababli bu mavzu yillar o'tsada, tarixchilar uchun bahs-munozaralarga sabab bo'ladi. Lekin bir narsani unutmaslik lozimki , yillar o'tgani sayin tarixga guvoh bo'lganlar yoki aynan haqiqatni eshitganlar kamyib ketmoqda va bu narsa biz tarixchilarga mavzuni tezroq tadqiq qilib xolis fikrlarni va haqiqatni kelajak avlodga yozib qoldirish ma'suliyatini yuklaydi. Tadqiqot jarayonida esa biz faqatgina ayrim manbalargagina tayanib qolmasdan , mavzu doirasida qilingan barcha ishlarni o'r ganib chiqishga harakat qildik , yetakchi olimlarning fikrlarini eshitdik , tarixiy hujjatlarni o'rgandik , mutaxassisligimiz doirasida esa siyosatchilarning bu mavzuga nisbatan bildirgan munosabatlarini umumlashtirgan holda o'zimizning mustaqil fikrimizni bildirdik. Bu mavzuda turli davrlarda , hozirda ham ilmiy ishlar qilinmoqdaki , lekin bularni hammasini haqiqatga yaqin deb bo'lmaydi. Chunki ayrim davlatlardagi siyosiy qarashlar bunga yo'l qo'y maydi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng , O'zbekiston tarixini tiklash va tarixga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimovning ko'plab chiqishlarida , turli asarlarida tarix masalasiga alohida e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlangan. Ayniqsa , 2012 yilning 9 may kuni prezidentimizning "9 may – Xotira va qadrlash kuni" bayramida xotira maydonida qilgan chiqishlari aynan tarixga va aynan biz o'r ganayotgan mavzuga bildirgan muhim ahamiyatga ega bo'lgan fikrlari biz tarixchilar uchun tarixni yoritishda nimalarga e'tibor qaratish lozimligi, unutmasligimiz shart bo'lgan masalalarini o'rtaga tashladilar. Aynan biz o'r ganayotgan mavzu bevosita o'zbek xalqining ham tarixiga va turmush tarziga o'z ta'sirini o'tkazganini alohida qayd etib o'tdilar. Bu mavzudagi ilmiy ishlar hali yetarli darajada emasligi va tarixni o'r ganish lozimligi bu boradagi qilinishi kerak bo'lgan ishlarni belgilab beradi.

**Tadqiqot obyekti:** nemis xalqi natsional-sotsializm davrida (1933-1945y)

**Tadqiqot predmeti:** nemis xalqining natsizm davridagi ijtimoiy ahvoli va turmush tarzini tadqiq qilish.

**Tadqiqotning metodlari:**

Nazariy-tadqiqot muammosiga doir maxsus adabiyotlar va manbalar tahlili,

Empirik-so'rovnomalar, kuzatuvlar va o'rganilgan ishlarni umumlashtirish, tarixiy hujjatlar nusxalari bilan ishslash,

Statistika-turli davr va turli mamlakat olimlarining ilmiy ishlarining faktlar asosidagi tahlili , olingan natijalarning statistik tahlili,

Voqealar bayonida xronologik usuldan foydalanildi , ya'ni voqealar ketma-ketlik asosida yoritildi.

**Ishning ilmiy yangiligi:**

– nemis xalqining natsional-sotsializm davridagi umumiyligi ahvoli ilk bora o'rganildi,

–tadqiqot ishi nafaqat mavjud adabiyotlarga tayangan holda , balki xorijda nashr etilgan adabiyotlar, davriy matbuot nashrlari va yetakchi ilmiy mutaxassislar , siyosatchilarning mavzuga doir fikrlari asosida yozildi,

–turli davrlarda va turli mamlakatlarda qilingan ilmiy ishlar faktlar asosida tahlil qilindi va mustaqil ilmiy xulosa berildi,

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati:** tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlardan talabalariga tarix fanidan dars berishda, shu mavzuda ilmiy izlanish olib borayotgan mutaxassislar foydalanishi mumkin.

**Taklif qilinayotgan tavsiyalar:** tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati va qiziqarli ekanligini hisobga olgan holda , mavzuni yanada chuqurroq tadqiq

qilish va kengroq o'rganish lozim va bu borada faqatgina adabiyotlarga suyanib qolmasdan mustaqil fikrlash va ilmiy xulosalar berish ahamiyatga ega.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi:** kirish qismi , ikki bob , paragraflar, xulosalar , foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova.

## **1-BOB. Germaniyaning 1933-1939 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli.**

### **1.1. Nemis xalqining jahon inqirozidan keyingi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.**

Germaniyada birinchi jahon urushidagi mag'lubiyatdan so'ng nemis xalqining ijtimoiy ahvoli achinarli holatga keldi. Mamlakatda ishsizlik , ocharchilik , ayniqsa dehqon xo'jaliklarining ahvoli yomonlashdi. Yer strukturasining buzilishi buning ustiga muttasil ravishda soliqlarning oshirilishi vaholanki hosilning o'zi yahshi natija bermayotgani dehqonlarning tinkasini quritardi. Bundan tashqari har bir o'lkada dehqon xo'jaliklarini nazorat qilish komissiyalari tuzilgan bo'lib , ularning asosiy vazifasi dehqonlarning hosilini hisoblash , soliqlarni o'z vaqtida yig'ib olish , dehqonlarning ortiqcha chorva saqlashga qo'ymaslik va sut , tuxum , sariyog' kabi mahsulotlarni kunlik miqdorda davlatga muntazam topshirib borishni nazorat qilishdan iborat edi. Qilingan ishlar hisoboti har kuni okrug komissiyasiga topshirilardi. Hatto shunday holatlar kuzatilganki , kundalik rejadagi tuxumdan 1 dona kam topshirganligi uchun yoki uyidan kichik idishda sariyog' topilgani uchun davlat dushmani sifatida qamoqqa olingen va mol-mulki musodara qilingan<sup>1</sup>.

Qishloq xo'jaligi esa texnikaning kamligi , mavjud texnikaning talabga javob bermasligi , yer strukturasining buzilishi natijasida yaxshi hosil olinmasdi. Dehqonlar esa yuqorida ta'kidlaganidek tobora siuvuga olinardi.

Bundan tashqari zavod-fabrikalar qisman yoki to'liq harbiylashtirilgan , butun e'tibor armiyani qurollantirishga qaratilgan edi. Zavod va fabrika ishchilarining ahvoli ham qoniqarli darajada bo'lмаган. Oylik maoshining kamligi va o'z vaqtida berilmasligi , ish vaqtining muttasil uzaytirilishi va ish

---

<sup>1</sup> Кара-Мурза А.А Тоталитаризм как исторический феномен . Сборник статей. Москва.: Филос. изд. СССР , 1989. –C.137

sharoitlarining qoniqarsiz ahvolda ekanligi shunga qaramay kuchli mehnatni talab qiladigan harbiy texnika va vositalar ishlab chiqarish ishchilar zimmasida edi.

Ta'lif va maorif sohasi to'laligicha natsistlar nazoratida edi. O'quv darsliklari natsistik g'oyalar bilan sug'orilgan , turli yoshlar tashkilotlari va guruhlari yoshlar ongiga natsistik g'oyani singdirish bilan shug'ullanardi. Bular jumlasiga kasaba uyushmalar , yoshlar tashkilotlari , partiyalar , sport qo'mitalari , televideniya va radio , turli xayriya fondlari va boshqalar kirar edi.

Aholining turmush darajasini ko'rib chiqadigan bo'lsak , bu avvalo ularning ish bilan ta'minlanishi bilan bog'liq omildir. Natsistlar hokimiyat tepasiga kelgan davrdan boshlab Germaniya hududida yashaydigan hech bir inson ishsiz yurmasligi kerak degan g'oya ilgari surildi. Chunki bu davrda natsistlar Germaniyasi uchun har bir ishchi kuchi ayniqsa , natsizm uchun xizmat qiladigan ishchilar ular qaysi sohada bo'lmasin , Germaniyaning manfaatlariga xizmat qilishi lozim edi.

Germaniyada 1932 yil yozida 6 million ishsiz mavjud bo'lgan bo'lsa , 1937 yilga kelib , ularning soni bir necha yuz mingga tushdi. Bu esa Germaniya hududida ishsizlik muammosi deyarli hal qilinganligini ko'rsatadi. Aholining asosiy qismi ishlab chiqarishda ya'ni sanoat ishlab chiqarishida faoliyat olib borgan. Sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sishi Germaniya miqyosida quyidagicha ko'rinishda edi<sup>1</sup> :

1940 yil - 15 %

1941 yil - 19 %

1942 yil - 26 %

1943 yil - 38 %

---

<sup>1</sup> Вольфрам Фишер “Европа : экономика , общество и государство 1914-1980” Москва 1999.-С.182.

1944 yil - 50 %

1933 yil 14 iyuldan Germaniya hududidagi barcha partiyalar (NSDAPdan tashqari) taqiqlandi. 1934 yil iyun oy natsistlarning kayzer davridagi amaldorlar , siyosat arboblari , madaniyat vakillari va yirik mulk egalari (qaysiki natsistlarga bo'yusunmaganlari)ni yo'q qilish avj oldi. Bu voqealar tarixga "Uzun pichoqlar tuni" nomi bilan kirdi. Hatto davlat apparatida ishlagan bir necha shaxslar ham yo'q qilindi.

"Uchinchi reyx" atamasi esa 1934 yil sentyabr oyida Nyurenberg syezdida Gitler tomonidan qo'llanildi.

1936 yilgi XXI yozgi olimpiada o'yinlari Berlinda bo'lib o'tadi. Natsistlar hukumati olimpiada o'yinlari uchun 25 million reyxsmarka ajratadi. Ularning fikricha olimpiada o'yinlari ularning jahon hamjamiyati ko'z o'ngida natsistlarning xalqaro nufuzining o'sishiga xizmat qiladi. Berlinda o'nlab sport inshootlari quriladi (eng yirigi Berlin stadioni). Olimpiada o'yinlarining ochilish marosimi Berlin shahrida bo'lib o'tadi. Ochilish marosimida 110 ming kishi ishtirok etgan. Shaxsan Gitlerning buyrug'i bilan har qanday antisemistik ruhdagi ayirmachilik harakatlari rasman to'xtatiladi. Lekin bunday siyosat ortida natsistlarning g'arazli maqsadlari yashirin edi. Musobaqalarda g'olib chiqqanlarni tabriklash marosimida shaxsan Gitlerning o'zi ishtirok etgan. G'oliblarni tabriklash uchun tribunaga ko'tarilgan Gitler Nemis millatiga mansub sportchilarni tabrikлади va navbat amerikalik qora tanli sportchilarga kelganda namoyishkorona tribunani tark etadi va natsistlar siyosatining asl qiyofasini butun jahon oldida ko'rsatadi. Amerikalik qora tanli sportchi Jessi Ouens yugurish bo'yicha jahon rekordini o'rnatadi (100m – 10,3 sekund). Lekin uni na olimpiada o'yinlari tashkilotchilari, na Ruzvelt va na Trumen tabriklamadi hatto tabrik xati ham yuborishmadi. Bu esa nafaqat Germaniya balki , AQShning ham irqchilik siyosatiga chek qo'yaganligining yaqqol namunasi edi.

1938 yilning 9 noyabr kuni tarixga “Xrustal kechasi” nomi bilan kirdi va shu kundan e’tiboran nafaqat Germaniya hududidagi balki butun Yevropa va butun dunyodagi yahudiylarni yo’q qilishga qaratilgan natsistlarning antisemitizm siyosati rasman amalga oshirila boshlandi.

30 yillarda Germaniya hech qanday shak- shubhasiz urush holatida edi va buni amalga oshirmaslikning hech qanday imkoni qolmagan edi. Bundan nafaqat Germaniya balki boshqa mamlakatlar ham manfaatdor edi. Nega natsistlarni hech kim to’xtatib qolmadi degan savolning javobi ham shunda edi<sup>1</sup>.

30 yillarning boshida Gitler nemis yoshlari bilan tez-tez uchrashib turardi va ularga shunday murojaatlar qilardi : “ – Germaniya nemislarniki va u siz yoshlarga muhtoj... Men sizlarning yorqin kelajagingiz uchun muqaddas Germaniyani yot millatlardan tozalab beraman... Uchinchi reyxning poydevori siz yoshlar va uni qo’riqlashingiz va himoya qilishingiz lozim... Sizlarning har qanday sohada yetuk mutaxassis bo’lishingiz uchun hamma imkoniyatlarni yaratib beraman... ”<sup>2</sup>.

Gitler o’z va’dasini “bajardi”. Natsizm g’oyasi bilan zaharlangan bu yoshlar natsistlarning quroli sifatida namoyon bo’ldilar xolos. Nemis xalqining umumiy ahvoli esa qisman yaxshilangan bo’lsada , lekin ertangi kunga ishonch yo’qligi , mamlakat tobora urush yoqasida qolayotganligi , aholining tushkun kayfiyati tobora o’sib borardi.

---

<sup>1</sup> www.Hrono.ru

<sup>2</sup> Пленков О.Ю Мифы нации против мифов демократии : немецкая политическая традиция и нацизм . Москва.: изд. Русский Христианский гуманитарный институт, 1997. – С.43.

## **1.2. Gitlerning hokimiyat tepasiga kelishi va natsistlar diktaturasining o'rnatilishi.**

Tarixdan bizga ma'lumki 1918 yil I-jahon urushi nihoyasiga yetdi. Oradan 11yil o'tib dunyo butunjahon iqtisodiy-moliyaviy inqirozga yuz tutdi. 1933 yilga kelib esa dunyo Gitler ismli shaxsni tanidi. I-Jahon urushidan keyin imzolangan "Versal " shartnomasi mag'lub davlat Germaniyaning manfaatlarini cheklab qo'ydi. Gitlerni hokimiyat tepasiga kelishida asosiy rol o'ynagan ko'rinxmas kuchlar esa ushbu shartnomani bekor qilish , Germaniyaning Bismark davridagi obro'sini tiklash, nafaqat Yevropada balki dunyoda Germaniyaning ta'sirini orttirish va yahudiylarga qarshi qaratilgan bir qanchi g'ayriinsoniy g'araz maqsadlar yotardi. Bu esa albatta nemis hukmron doiralari, nemis xalqi va buning orqasidan boylik orttiradigan kimsalar uchun ayni muddao edi. Bu narsaga o'z o'zidan erishib bo'lmasdi.Buning uchun yetarlicha baxona kerak edi. Adolf Gitler Shiklgruber o'zining ijtimoiy kelib chiqishi, qarashlari, siyosiy nuqtai nazari, oratorlik qobiliyati, qattiqxo'lligi, berahmligi, metindek irodasi, o'z maqsadi yo'lida hech narsadan tap tortmasligi va boshqa bir qator jihatlari bilan nemis hukmron doiralari uchun ayni muddao edi.

Gitlerning tarjimai holiga nazar soladigan bo'lsak u yoshligida judayam qiyin sharoitda yashagan, turli taxqirlanish , xo'rlik va nohaqliklarni boshidan kechirgan bo'lib bu narsa uning yoshi ulg'aygandan keyin o'z natijasini ko'rsatdi. Avstriyalik omadsiz bir rassom bola kun kelib dunyoni larzaga solgan jahon urushining asosiy sababchisiga aylanishi va dunyo xalqlarining yostig'ini quritishi hech kimning ko'z oldiga kelmasdi. Gitler siyosiy faoliyatining boshlanishi uning 1918 yilda I-Jahon urushidan qaytgandan so'ng siyosatga qiziqib qolishi va turli siyosiy to'garaklarda faol ishtirok etishi bilan boshlandi. 1918 yildan 1927 yilgacha bo'lgan davrda u siyosiy kayfiyatdagi klublar, harakatlar, mitinglarda o'zining notiqlik mahoratini oshirib bordi va bu bilan hukmron doiralar e'tiboriga tushdi.Keyin u Sotsial Demokratik Partiya(SDP)ga a'zo bo'ldi va o'z chiqishlari bilan omma nazariga tusha boshladi va keyinchalik undan siyosiy kuch sifatida foydalana boshlashdi.30-yillarning boshida

mamlakatda vujudga kelgan siyosiy parokandalik uni va uning orqasida turgan kuchlarni siyosiy hayotda faol ishtirok etishga undadi.Davlat hokimiyatiga nisbatan ishonchszizlik va qarshi harakatlarning kuchayishi natijasida Gitler asosiy siyosiy yetakchi sifatida qamoqqa olindi.Qamoqda o'z muddatini o'tayotgan Gitler o'zining g'oyalari jamlangan "Mein Kampf"("Mening yo'llim") nomli kitobini yozdi.Bu kitobda u nemis xalqining asriy orzu – istaklari va kelajakdagi nemis ta'sir doirasini oshirish, Germaniyani gegemon davlatga aylantirish ya'ni "uchinch reyx" ni barpo etish va o'zining azaliy orzulariniyatlari aks ettirilgan.Mahbuslikdan qaytgach Gitler o'zining siyosiy hayotdagiga ta'sir doirasini yanada kengaytirdi va siyosiy hayotdagiga o'z o'rnini mustahkamlay boshladi. Uning hokimiyat tepasiga kelishidan manfaatdor va aksincha qarshi kuchlar ham bor edi. 1927 yil 23 fevralda Angliya tashqi ishlar vaziri Nevill Chemberlen Moskvaga ogohlantiruvchi-nota yubordi. Unga ko'ra : " SSSR hukumati antiingлиз propagandasini to'xtatishni va tobora xavf tug'dirayotgan natsistlarga har tomonlama ko'maklashishni to'xtatish talab qilingan<sup>1</sup>". Talab qondirilmagach 27 may kuni Moskva va London o'rtasida diplomatik aloqalar to'xtatildi. Agar sovet hukumati yangi urushda natsistlar tarafida tursa Angliya SSSRga hujum qilishi to'g'risida ogohlantirildi.

Dastlabki saylovlarda muvaffaqiyat qozonmasada lekin siyosiy hayotda o'z o'rniga ega bo'ldi.1933 yil mart oyida bo'lgan saylovlarda garchi kam ovoz olgan bo'lsada national-sotsialistlar partiyasi hokimiyat tepasiga keldi va 1934yilda Gitler o'z diktaturasini o'rnatdi.

Natsizm dikturasining o'rnatilishi butun Germaniya hududida siyosiy partiylar, siyosatga tegishli har qanday harakatlar natsizm g'oyasiga bo'ysundirildi, bo'ysunmaganlari shafqatsizlarcha tugatildi. Maktablar, bog'chalar, yoshlar tashkilotlari, klublar, nashriyotlar, zavod-fabrikalar qo'yinki jamiyatning barcha sohasi natsistik partiyaga bo'ysundirildi.Bo'ysunmaganlari esa shafqatsizlarcha qirib tashlandi va yo'q qilindi.

---

<sup>1</sup> Житорчук Ю.В "Так кто же виноват в трагедии 1941 года" Москва.: изд. Полигон 2008.- С.45.

Germaniyada hokimiyat tepasiga natsistlar kelgan ikki yildan beri “Gestapo” so’zi hammaga ma’lum va mashhur so’z bo’lib ketdi. Germaniya maxfiy politsiyasining shuhrati, boshqa barcha kapitalistik mamlakatlarning maxfiy politsiyalarinikidan yuqori bo’lib , shubhasiz u tarixda chor Rossiyasining “oxranka” tutgan o’rindan ham yuqori o’rin egallaydi<sup>1</sup>.

Gestapo faqat Germaniyaning ichida emas , balki tashqarida ham ish olib borardi.”Gestapo” so’zi birgina Germaniyaning konsentratsion lagerlaridagi vaxshatlarni , qamoqxonalardagi qiyonoqlar va qochishga uringanlarni otib o’ldirishlarni ifodalaydigan so’z bo’lmay , balki u Germaniyaning ichida bo’ladigan juda ko’p shunga o’xhash vaxshiyliklarni harkimning ko’z oldiga keltiradigan so’zdir. Dunyoda Germaniya oxrankasi (maxfiy politsiyasi)ning agentlari ish yurgizmagan hech bir mamlakat qolgan emas. Shveytsariya , Fransiya ,Angliya va Italiya , Belgianing Eypen-Malmedi oblastida , Daniyaning Shimoliy Shlezvigida, Avstriyada, Chexoslovakianing Sudetida, Boltiqbo’yi mamlakatlarida va umuman hamma joyda Gestaponing iflos izlarini ko’rish mumkin.

Chexoslovakija bilan chegaradosh shaharchada yashovchi muhojir-injener Rudolf Formisni kim o’ldirdi? Germaniya reyxstagi yondirilgandan keyin Avstriyaga qohib ketgan va reyxstagga o’t qo’yanlar haqida ma’lumot bermoqchi bo’lgan avanturist Bellaning boshiga kim yetdi? Mamelda terrorchi natsislarni kim birlashtirdi? Natsislarning Kovno shahrida bo’lgan sudida kimlarning harakati ochib berildi? Germaniyaning urushga tayyorgarligi to’g’risida dunyoga xabar berib turgan inqilobchi-yozuvchi (jurnalist) Yakobni Bazeldan kimlar o’g’irlab Germaniyaga olib keldi. Bularning hammasi “hamma joyda mavjud va qo’li uzun” Gestapo qilgan ishlardir.

---

<sup>1</sup> История Второй Мировой войны 1939-1945 гг. Том 3, - М., 1978.- С.87.

Germaniya tashviqot (ommaga siyosiy ta'sir o'tkazish maqsadida qilinadigan ishlar) ministrligi va harbiy razvedkasi tomonidan beriladigan millionlab markalar ularning xizmatiga tayyor edi. Yo'q qilinishi kerak bo'lgan kishilarni o'ldirish uchun pulga sotilgan qotillarni yuborardi va ular o'z iflosliklarini to'pponcha va xanjar yordamida va joyi kelsa natsistlar zulmidan Londonga qochib ketgan muhojirlar Fabian va Vurmini o'ldirganidek zaharlashdan ham qaytmaydilar.

Qotillar bevosita Gimmler va Gering to'garagida yurgan kishilar ichidan tanlangan. Ular oliy tabaqadan chiqqan natsist harbiy idorasining vakillari- yosh qizlar va "vatanparvarlik" tuyg'usi bilan yurgan kishilar bo'lib, ularning bahosi marka , dollar va funt-sterlingda baholangan. Bu manfur kimsalar va Gitlerni o'zlariga yangi himmatli xo'jayin qilib olgan rus oq gvardiyachilari natsislarning saroyi atrofida ivirsib yurardilar. Ular jon saqlash maqsadida bir qator Yevropa mamlakatlariga qochib ketgan Germaniya muhojirlari orasiga kirib , o'z qurbanlarining "qora ro'yxati"ni tuzganlar. Ular o'zlariga kerak bo'lgan hujjat va xatlarni o'g'irlaganlar, qalbaki hujjatlar tuzish va gazeta idoralarini pulga sotib olib , har xil yolg'on ig'volar tarqatish bilan mashg'ul bo'lganlar.

Gestaponing faoliyati natsistlar Germaniyasining urushga tayyorlanishining bir jabhasidir.

Mamlakatning ichida , u (Gestapo) "ishonchsiz" kishilarni aniqlash maqsadida ishchilarni izma-iz kuzatib ma'lumotlar yiqqan. Uning asosiy diqqati zavod va fabrikalarga – o'zining jangari matbuotini tarqatuvchi va ishchilar ommasini natsizmni yiqitish uchun kurashishga safarbar qiluvchi Germaniya kommunistlar partiyasini qo'lga tushirishga qaratilgandi.

Mamlakat chegaralarida u diversion harakatlarda bo'lib, chegara bo'yidagi xalqlarning hayotini kuzatdi va bir qator mamlakatlarga o'z kishilarini , natsistik adabiyotlarni va qurol – aslahalar jo'natib turardi. Xorijiy mamlakatlarda va bиринчи navbatda natsizmni qo'llab – quvvatlagan davlatlarda Gestapo sport va

turistlar soyuzi , ishsizlar uchun xayriya jamiyatlari , madaniy-ma'rifiy uyushmalar va tashkilotlar niqobi ostida o'zining forpostlarini tuzgan. Bu agentlarning hammasi qonli to'qnashuvlar boshlash , inqilobchi kommunistik tashkilotlarni tor-mor qilish va ishchilar ommasini qirish uchun bahona qilish maqsadida “yolg'on qo'zg'olonlar” uyushtirish uchun Berlindan keladigan signalni kutganlar.Gestaponing qanday idora ekanligini butun dunyo bilgan.

“Demokratik” Gestapodan natsizm Gestaposiga.Gestapo – Germaniya davlat maxfiy politsiyasining qisqirtirilgan nomi bo'lib , xalq tomonidan bu idoraga – “Davlat sirli politsiyasi”<sup>1</sup> nomi berilgan.

Germaniya xalqidan , ayniqsa chegaradan tashqaridagi xalqlardan Gestaponing faoliyati va mohiyati sir tutilgan . Bu sirlarni ochish juda qiyin bo'lган. Gestapodan aziyat chekkanlar ularning manfur ishlaridan qisman xabar topgan bo'lsada, lekin hozirgacha deyarli uning barcha sirlari ochilgan emas. Butun mehnatkashlar ommasi Gestapoga dushmanlik ko'zi bilan qaragan.Lekin katta sanoat egalari , yirik yer egalari, bank xo'jayinlari unga umid ko'zi bilan qarashgan. Gestapo aslida ularning quroli edi.

---

<sup>1</sup> Winkel E “Gestapo” Warszawa 1934.-S.14.

### **1.3. Natsistlarning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati va islohotlari**

Natsistlar hokimiyatni egallaganlaridan keyin uni mustakamlash choralarini ko'rdilar va Germaniyaning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida islohotlar o'tkazdilar. Ijtimoiy hayot , iqtisodiy hayot , siyosiy boshqaruv umuman barcha soha natsistlar nazoratiga olindi. Barcha soha natsistlar Germaniyasining jahon urushiga tayyorgarligi uchun xizmat qilardi. Shu bilan birga natsistlar barcha sohalarni qamrab oluvchi islohotlar o'tkazishdiki , jamiyatning hech qaysi tabaqasi nazardan chetda qolib ketmadi. Nemis xalqining ham turli sohalarda faoliyat yuritishiga qarab guruhlarga bo'lindi va qariyalar , nogironlar , aqliy zaiflar va shunday ko'rinishdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlama Germaniya uchun foydasi tegmaydigan guruhga kiritildi va ularni Germaniya hududidan chiqarish yoki yo'q qilish masalasi ko'rildi. Gitler tashabbusi bilan ilgari surilgan bu g'oya nemis xalqining toza qonini saqlab qolish va Germaniyani tozalash sifatida baholandi.

Butun mamlakat bo'y lab bunday shaxslarni ro'yxatga olish boshlandi va ular turli usullar bilan yo'q qilishga kirishildi. Masalan , ular davolash yoki pansionatlarga joylashtirish bahonasida mamlakatdagi barcha shunday toifa insonlar bir joyga to'planadi va gazli kameralarga qamab yo'q qilinadi. Bundan tashqari ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish va davolash o'rniga ular nemis tadqiqotchi olimlari uchun tajriba – sinov amaliyotlarini olib borish uchun taqdim etilgan. Bu harakatlar nafaqat nemis xalqidan balki , butun dunyodan sir tutilgan va sirdan voqif bo'lganlar ham yo'q qilingan. Buni Gitler va boshqa natsistlar nemis xalqining sofligini va toza qonini saqlab qolish deya baholashdi va Germaniya bunday shaxslarni kafillikka olmaydi deb uqtirishgan.

Keyingi asosiy e'tibor mamlakatdagi endi yetishib kelayotgan yosh avlodga qaratildi va ularni natsizm g'oyasi uchun xizmat qiladigan va hatto jonidan kechadigan shaxslar sifatida tarbiyalashning bosqichma-bosqich amalga oshirish choralari ishlab chiqildi. Avval bog'chada keyin maktab , keyin esa bir qismi

(asosan oliy nasab oila farzandlari) oliy ta’limda , boshqa bir qismi ishlab chiqarish va boshqa sohalarda o’z xizmatlari bilan “Uchinchi reyx”ning umrboqiyligini mustahkamlashda ishtirok etdilar. Yetuk harbiy mutaxassislar tayyorlash esa alohida davlat siyosati darajasida ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Moliyaviy ta’midot tomonidan ham eng asosiy e’tibor harbiy mutaxassislar tayyorlashga qaratildi. Natijada o’rmonlar ichida joylashgan Shimoliy Shlezvig o’lkasi ofitserlar , serjantlar va boshqa harbiy mutaxassisliklar tayyorlashga yo’naltirilgan o’quv yurtlari uchun ajratildi va eng zamonaviy texnikalar bilan ta’minlandi.

Yuqorida zikr etilgan natsistlaarning har qanday harakati yoki siyosatiga nisbatan norozilik kayfiyatida yurgan insonlar hech qanday ogohlantirish va shafqatsiz ravishda yo’q qilinadi. Qayerda ishchilar va kichik xizmatchilar kundan kun chuqurlashib borayotgan faqirlik va muhtojlikka qarshi nolib bosh ko’tarsalar , darhol maydonga Gestapo kelgan. Qayerdaki tarqoq mayda dehqonlar va “3-reyx”ga bog’lagan umidlari puchga chiqqan kichik hunarmandlar norozilik bildirsalar, Gestapo hamma vaqt tayyor edi. Gestapo Germaniyada yangi tashkil etilgan idora emas , qaytadan qurilgan, huquq va vakolatlari kengaygan eski tashkilotdir. Davlat maxfiy politsiyasi Germanianing kayzer davrida ham bor edi , u demokratiya davrida ham yashagan. Natsistlar burjuaziya tarafdoi bo’lgan sotsial-demokratlarni hukumatdan chetlatib , davlat apparatini o’z qo’llariga olganlaridan keyin , natsistlar “davlat dushmanlari”ning tayyor ro’yxati va kartotekalarini topdilar.

“Demokratiya” davrida “1 A” bo’limi degan “demokratik” Gestapo , reyxstag yong’inining ertasi kuniyoq , 1933 yil 28 fevralda “davlat dushmanlari”ga birinchi zarbani berish uchun natsistlarni kerakli materiallar bilan ta’minladi. Ularning “davlt dushmanlari” ro’yxatida kommunistlardan tashqari, “1 A” bo’limining kartotekasida sotsial-demokrat oppozitsiyasi , ishchi va xizmatchilar va oppozitsion fikrlovchi burjua ziylilari ham bor edi. Bu

kartotekalar demokratik va sotsial-demokrat ichki ishlar ministrlari va politsiya prezidentlarining topshirig'iga ko'ra tuzilgan edi.

Shu sababli 1933 yil 28 fevralidan keyin hokimiyat tepasiga natssistlar kelgan birinchi davrdyoq qonli terror avj olib turgan bo'lsada sobiq politsiya prezidenti sotsial-demokrat Sergibelga nisbatan hech qanday jazo choralari qo'llanilmagan. Kyoln , Berlin va Dortmund shaharlarining politsiya prezidenti sifatida o'z vazifasini bajarishda davom etardi. Chunki Germaniya kapitalistlarining manfaati shuni talab qilardi. Shu sababli eski hokimiyatni yiqitib, hukumatni o'z qo'llariga olgan natsistlar ung hech narsa qilmay balki unga pensiya ham tayinladilar. O'sha paytda unga o'xhash bir qator kimsalar "uchinchi reyx" ning pensiyasini olib tinch yashaganlar talaygina edi. Bu esa ularning sodiq xizmatlari uchun Germaniya burjuaziyasi tomonidan berilgan mukofotdir. Hitler hammadan oldin ularni , demokratiya niqobi ostida kapitalistik davlatni kommunistik inqilobdan saqlab qolganlari uchun emas , balki burjuaziya hokimiyatining butun apparatlarini va shu jumladan Gestaponi to'la ravishda ishga yaroqli holda saqlab qolganliklari uchun mukofotlagan edi.

Kayzer zamonidagi Germaniyada Gestapo Berlinda o'sha paytdagi "Korolev politsiya-prezidiumi" qoshida edi. 1918 yil noyabrida ishchila va matroslar "Korolev politsiya-prezidiumi"ni ishg'ol qilgan vaqtlarida ular faqat forma kiygan politsiyachilarni quolsizlantirdilar. Oddiy fuqaro kiyimidagi mafiy siyosiy politsiya qo'lga tushmay yaxshi himoyalangan maxfiy burchaklarga berkindi. Bu bo'limning roli u paytda ishchilarga ma'lum emasdi.

Karl Libknext v Roza Lyuksemburg singari mashhur va boshqa bir qancha kommunistik inqilobchilar Gestapo agentlari tomonidan qatl etilgan.

1918 yil noyabrida maxfiy siyosiy politsiya sotsial-demokratlar tomonidan qaytadan qonuniylashtirildi. Berlin politsiya prezidenti Valter Rixter uni qayta tikladi. U faqat sotsial-demokratlardan iborat bo'lgan Prussiya hukumatining himoyasi ostida o'z faoliyatini olib brogan. Sobiq "Korolev politsiya-

prezidiumi” rahbarlari esa ishdan olinmay balki yangi tashkilotda o’z faoliyatlarini davom ettirdilar. Davlat yashirin politsiyasining o’rta apparatiga davlatga sodiq bo’lgan bir necha sotsial-demokratlar olindi. Agentlar va kuzatuvchilar sifatida yangi kishilar ham olindi ammo apparat esa asosan o’z holicha qoldirildi.

Xulosa qilib aytganda hokimiyat natsistlar qo’liga o’tgan bo’lsada, lekin Gestaponing burjua demokratiya davrida sinalgan amaldorlari o’z vazifasida qoldirildi. Buning sababi kayzer davrida davlat maxfiy politsiyasida ishlagan kishilar davlatning ancha sirlarini bilardilar shu sababli ham ularni vazifasidan chetlatib bo’lmashdi.

Gestapo kayzer davrida qanday bo’lgan bo’lsa “demokratiya” davrida xalq ommasini bosish uchun kapitalistlarning asosiy quroli bo’lib xizmat qildi. Bu qurol bilan Germaniya burjuaziyasi faqatgina kommunistlarga qarshi kurashmay, balki ularga itoat qilishdan bosh tortgan barcha xalqlarni tinkasini quritgan. Gestaponing Berlin politsiya-prezidiumi binosi 1933 yilning 28 fevralida aybi bo’lsa bo’lmasa xalqning barcha tabaqasi bilan to’lgan edi. Ularning ko’pi Gestaponing kartotekasiga kiritilgan va “davlat dushmanlari” sifatida ro’yxatga olingan kishilar edi. Bunda natsistlarning vazifasi ro’yxatga olingan kishilarni topib kelish va ularni yo’q qilishdan iborat edi.

Gestapo binolari ichida nimalar qilingan? Gestapo binolari ichida nimalar qilingan degan savolga ochiq va ravshan qilib chor oxrankalarida qo’llanilgan barcha dahshatli qatl qilish, qiynash va jazolashlardan tortib , mustamlaka xalqlarni qul qilishda imperialistlar tomonidan qo’llanilgan barcha jazo choralar va boshqa insoniyat tarixida uchramagan g’ayriinsoniy usullardan foydalanilgan degan qisqa javobni berish mumkin. Ularni ko’rish u yoqda tursin tasavvur qilishning o’zi ham dahshat bo’lgan.

Bunday holatlar nafaqat boshqa xalqlarga balki nemis xalqiga nisbatan uyushtirilgan terror edi. Lekin “madaniyatli” Germaniya gestaposining metodlari

mufassalroq tasvirlashni talab qiladi. Gestaponing natsist xo'jayinlari albatta , gestapoda bo'lган qatllar, qyynoqlar va boshqa g'ayriinsoniy harakatlarni o'zlariga tobe bo'lган quyi idora vakillariga ag'darganlar. Lekin 1933 yilning 28 fevralidan keyin natsistlar tomonidan qilingan barcha jinoyatlar uchun berilgan "umumiyl avf"dan keyin Gestaponing barcha qilmishlarini o'zlar ochib berdilar. Ular o'zlarining bu aktlari bilan har qanday jinoyatlarga avvaldan ruxsat berib , jiggarrang, qora va ko'k forma kiygan Gestapo agentlarining harakatiga keng yo'l ochib berdilar. Albatta "umumiyl avf"(amnistiya) berilmaganda ham ularning hech qaysisi jazoga tortilmasdi. Bu davrda Germaniya boshqaruvi tizimi harbiy va og'ir snoat magnatlari, yirik yer xo'jayinlari va bank rahbarlari qo'lida ekan bu jinoyatlarning hech biri to'xtatilmagan va jazoga tortilmagan.

Germaniyaning boshqaruvi organlari, harbiy organlar, ichki va tashqi siyosat olib boruvchi barcha organlar bevosita Gestaponing nazoratida bo'lgn.

Nemis xalqi umumiyl talikali bir vaziyatda qolib ketga edi. Gestapo o'zining barcha harakatlarini zamonaviy qurollangan maxfiy qismlar yordamida amalga oshirgan. Uning asosiy jangari otryadi masus vazifalarni bajaruvchi oxranka politsiya qismidir. Bunday alohida maxsus otryadlar kayzer zamonida tashkil etilgan va u davrda bunchalik ahamiyatga ega vazifalarni bajarmagan. Uni tashkil etganlardan biri o'sha pytda Prussiya ichki ishlar ministri Zehering edi. Natsistlar davrida ham bu qismning qo'mondoni Zehering davrida komandir bo'lib kelgan leytenant Veke edi. Maxsus tayyorlangan bu qismlar alohida ta'minotga ega edi. Politsiyaning umumiyl xizmatini bajarishga layoqatli har qanday odam bu qismlarga olinmasdi. Unga faqat xo'jayinlarning manffati uchun hech narsadan tap tortmaydigan jasadlar uyumini ham bosib o'tadigan, jismonan baquvvat, shafqatsiz va manfur kimsalar olingan.

Tez-tez bu maxsus otryadlar natsistlar tomonidan ta'minlab va maxsus tayyorlarlikdan o'tqizib turilgan. Bunday maxsus otryadlar oldin rasmiy ravishda "yordamchi politsiya" deb nomlanardi. Keyinchalik bu nom ham yo'qolib

ketdi. Rasmiy jihatdan bu “yordamchi politsiya” tugtildi, lekin bu maxsus otryadlar Gestaponing nazoratiga olindi. Gestapo o’zining o’ta maxfiy harakatlarini shu maxsus otryadlar yordamida amalga oshirardi. Boshdan oyoq zamonaviy quollar bilan qurollantirildi. Karabin miltiqlar, to’pponchalar va rezina tayoqlar bilan qurollangan natsislarning maxfiy politsiyachilari ishchilar yashaydigan kvartallarni o’rab olib o’z vahshiyliklarini amalga oshirar edilar.

Ular na qariyalar na bolalar va na ayollarga shafqat qilmay ularni o’ldirib , mayib qilib , azoblab ketardilar. Nafaqat gumondorlr balki o’sha gumondorlarning qayerga berkinganini aytmagan yoki aytolmagan son sanoqsiz yollar va qariyalar shfqtisizlarcha qirib tashlangan. Hatto ular xotin-qizlarni ham ayamay , ta’qiqlangan adabiyotlarni kiyimlari ichiga berkitgan degan guman bilan ularni omma orasida yechintirib tekshirganlar. Agarda xo’rlangan xotin-qizlar politsiya uchastkalariga arz qilsalar, ulardan -“bunday buyruq berganimiz yo’q” degan javopni olardilar. Bu ishlarning barchasi Gestaponing buyrugí va nazorati ostida bo’lgan.

To’satdan yo’q bo’lib ketgan kishilarning yo’qolish sabablari va ularning yo’qolish sharoitlari Gestapodagilarga aniq ma’lum edi. “Hukumat dushmanlari”dan qaysi biri bo’lmasin o’zi turgan kvartalda kim tomonidan va qanday qilib o’ldirilganlagini ular juda yaxshi bilib turardilar.

1934 yil 30 iyunida Gestapo va uning maxsus otryadlari tomonidan uyshtirilgan ommaviy qirg’inlar Gestaponing manfaati va uning vazifasini aniq ko’rsatib berdi : og’ir sanoat egalari buyurar Hitler va Gestapo bu buyruqqa itoat qilib uni bajarardi. Hujum otryadi boshliqlaridan bo’lgan Rem Ernst , general Shleyxer , Klavsner va boshqa yuzlab shturmoviklar ommaviy qatl qilindi. Bunday qulay paytdan foydalangan Gestapo o’zining boshqa dushmanlaridan ham va xatto aybi isbotlanmasada, gumondor hisoblangan insonlarni ham qatl qilaverdi.

Natsistlar surishtirib o'tirmay ko'zlariga shubhali ko'ringan har qanday kishini qamoqqa olaverishardi. Tarixda o'z xalqiga nisbatan bunchalik darajada qilingan yovuzliklar kuzatilmagan. Gap qamoqqa olingenlar , yoki natsislarning qo'liga tushganlar ustida bo'lidan "o'z-o'zini o'ldirdi" degan so'zning ma'nosini Gestapodagilar yaxshi tushunadilar. Onalarning ko'z oldida o'smir bolalarni uch-to'rt qavatli binoning derazasidan tosh ko'chaga tashlab yuborish gestapochilarning tilida "qamoqqa olishdan qo'rqib o'z-o'zini derazadan tashlab o'ldirdi" deb atalgan.Qamoqqa olingenlarni deraza oldiga yotqizib , po'lat kaltak, qamchi va rezina to'qmoqlar bilan urganda , kaltakning zarbiga chidolmay , jon achchigidan o'zini pastga otib yuborish hollari ham Gestapoda o'zini o'zi o'ldirish deb ataladi. Qamoqdagilarni oyoqlaridan tortib baland zinalardan sudrab tushish yoki ularni qopga solib osib qo'yib otish uchun tirik nishon sifatida foydalanish kabi ishlar odatiy holga aylangan. Bunday odatlardan keyin ham tirik qolganlar shturmoviklarning podvalida "ishlanib" chiqishlari uchun shturmoviklarga topshirilgan.

Har bir ko'chada katta-kichik podvallar bo'lishidan tashqari bir qancha maxsus moslangan binolar bo'lar ediki, ularda qynalganlarning ovozi gestapochilardan boshqalarga eshitilmasdi.

Tarixga kirgan bunday markazlar jumlasiga Berlinda Lerter vokzali yonidagi "Ulap" tomosha bog'i, Berlin-Shenbergning general Papes koçhasidagi sobiq harbiy idora binosi, Gedemansh-trass dagi "Naparmanuy" sobiq natsistlar obkom partiyasining binosi va Byulov maydonidagi sobiq Karl Libknext uyi kiradi. Bu uy hukumat tomonidan musodara qilinib , Gestapo ixtiyoriga topshirilgan. Bu uyda birinchi navbatda Germaniya kompartiyasining aktiv a'zolari bo'lib tanilgan kishilar qiynoqqa solingan.Bu mudhish qiynoq kameralari "Kolumbiya-Xavz" nomli uy va Prins-Albrext-shtrasdagi Gestapo binosidir.

Bu turmalarda yotib chiqqanlar o'z boshlaridan o'tgan kunlarni gapirib bergenlarida ularni eshitgan har qanday odam dahshatga tushgan.

Qamalganlarni “ishlab chiqish”i odatda kaltaklanishdan boshlangan. Qo’lga tushgan qurbonni stol ustiga yotqizib rezina to’qmoq , xipchin , miltiq qo’ndog’i va kamarlar bilan hushdan ketguncha urilgan. Bu kaltaklashlar hatto uning terisi yirtilib badanidan qon oqib turganda ham to’xtamagan. Keyinchalik jazolashning “yaxshilangan” usuli qo’llanilgan: ya’ni qattiq ishlangan ho’l sochiqlar bilan urilgan. Bu “madaniy” usul ularga o’z qurbonini mayib qilish yo’lini osonlatib , uning hamma ichki a’zolarini buzishi bilan birga , badanida ko’zga ko’rinadigan izlarni qoldirmagan va qon oqmagan.

Qiynashning bir qancha turlari qo’llanilgan: qamoqdagilarni tobutga yotqizib qimirlamay yotish buyurilgan. Uning boshi ustiga bir idish osib qo’yilib, tobutda yotgan kishining peshonasiga undan sekin suv tomib turgan. Ayollarga nisbatan qo’llangan qiynoq usullaridan, ular bir necha soat qimirlamay stulda o’tirishgan , sal qimirlagan taqdirda har tomondan kaltaklangan.

Bular nima faqat quyi lavozimdagi politsiyachilarining o’zboshimchaliqimidi? Yo’q , bu ishlar barchasi ongli ravishda Gestapo rahbarlarining buyrug’i bilan qilingan. Buni isbot qiladigan faktlardan biri shuki , ba’zi judayam qattiq azoblangan qurbonlar Berlin-Moabitdagи tergov turmasi yonidagi kasalxona yoki lazaretga Gestaponing harbiylari tomonidan keltirib turilardi.

Qiynoqqa soluvchilarining bundan tashqari yuzlab “ixtiro”lari bor edi. O’nlab mahbuslar yotgan kameraga to’satdan bir to’nkani yumalatib kirgizadilar. Mahbuslardan biri ushlanib oxirgi istagini aytishi taklif qilinardi. To’nkaning oldida jallod qo’lida boltasini ushlab go’yo uning boshini uzishga tayyor bo’lib turardi. Mahbusni boshini ko’tarib to’nka ustiga qo’ishga majbur qiladilar va jallod boltani ko’tarib to uning sovuq tig’i mahbusning ensasiga tekkuncha sekin tushiradi. So’ngra boltani to’satdan ko’tarib bu safar go’yo chinakam uning boshini kesmoqchi bo’gandek qiladi... Bu safar ham bolta sekin tushiriladi. Boshqa mahbuslar bu dahshatli manzaraga qarab turishga va har safar o’z

o'rtoqlarining boshi kesiladi deb kutib turishga majbur qilingan. Shunga o'xshash mahbuslarni ruhan azoblashning yuzlab usullari bor edi.

Azoblashning ayniqsa uchiga chiqqan usullari Gestaponing Gamburgdagi mahbuslariga nisbatan qo'llanilgandir. Unda Leninning rasmi osilgan xona bo'lib , mahbus bu xonaga kiritilgan va Leninning rasmiga tupur deb buyurilgan. Agarda mahbus tupurishdan bosh tortsa , u issiq bug' to'ldirilgan "parli morja"ga kirgizadilar. Bir necha minut o'tgandan keyin mahbusda kuchli yurak og'rig'i boshlangan. Agarda mahbus bu azobga chidolmay o'lsa , uning yaqinlariga "yuragi yorilib o'ldi" deb xabar qilingan.

Buning ustiga o'ldirilganlarning qarindosh – urug'larini ham masxara qilganlar. Masalan mahbus Shtolning qarindoshlariga Berlindagi Gestapoda "o'zining ideyasi uchun yuragi yorilib o'lish – juda yaxshi o'lim emasmi?" degan so'zni aytganlar.

Bularning hammasi – Gestapo binolaridagi odam kushxonalarida azoblangan kishilar tomonidan gapirib berilgan vaxshiyliklarning bir qismi xolos.

Gestaponing boshlig'i kim ? Gestapo deb nomlangan bu tashkilotning bevosita boshlig'i , maxsus otryadlarning imperiya rahbari – natsist Gimmlerdir. Ammo haqiqiy va gestaponing bosh rahbari , imperiya ministri va reyxstag yong'inini uyushturuvchi general German Geringdir. Natsistlarning gestaponing bu rahbariga bo'lgan munosabatlari Zonnenburg lagerining vaxmisterlaridan bo'lgan bir natsistning so'zlari bilan aniq belgilanadi. Bir vaqt u , mahbusga to'pponcha bilan o'qtalgan hamkasbiga – "otib tashla! Gering bizni qutqaradi" – degan.

1933 yil davomida Gitlerning muovini , imperiya ministri Rudolf Gess , mahbuslarni qiynash man etiladi , deb ikki marta dekret chiqardi. Lekin qiynalib yotgan mahbuslar shu dekretlar haqida gapirganlarida gestapochilar kulib, "bu

dekretlar faqat chet mamlakatlarga e'lon qilish uchun chiqarilgan”<sup>1</sup> deb javob qaytarganlar. Bu bilan ular , bunday dekretlarni chiqarishdan maqsad , chet mamlakatlarda “Germaniya turmalarida mahbuslarni qiyashga yo'l qo'yilmas ekan” , degan fikr uygótish ekanligini ta'kidladilar.

Konsentratsion lagerlar. “Davlat dushmanlarining ildizini quritish” sistemasining oxirgi bosqichi- konsentratsion lagerlardir. Bu muassasalar – o'lim lagerlarining o'zginasidir. U yerlarda saqlangan kishilar jismoniy va ma'naviy o'lim bilan halok bo'lganlar. Ko'plari esa to'g'ridan – to'g'ri o'ldirilganlar.

O'lim lagerlari odatda xalq yashaydigan hududdan uzoqda baland devorlar bilan yoki elektr toki ulangan tikanli sim bilan ihotalangan eski katorga turmalariga joylashtirilgan edi. U yerdagi qiynoqlar va boshqa xunrezliklarni oddiy xalq umuman eshitmagan va ko'rмаган. Mahbuslarning yaqinlari bilan uchrashishiga har doim ham ruxsat berilmagan. Mahbuslarning xatlari qattiq kontroldan o'tkazilgan. Mahbuslar o'zlarining axvollari to'g'risida arz qilishga huquqlari bo'lмаган. Lagerlar tashqi dunyodan uzilgan va qattiq nazorat ostida qo'riqlangan. Mahbuslar esa qiynoqlarni amalga oshiradigan lager harbiylarining ixtiyoriga topshirilgan.

Bu lagerlarda faqatgina azoblanganlargina emas balki ularni azoblanishini ko'rGAN boshqa mahbuslar ham ruhiy azobdan ezilgan va halok bo'lgan. Lagerlarda yotgan mahbuslarning birortasi ham o'zining navbatdagi qurban emasligi , oldinda turgan yarim soat ichida deraza romiga osib o'ldirilmasligi , yoki “qochishga harakat qilgani uchun” otib o'ldirilmasligiga amin emasdi.

Lagerlarning komendaturasi va nazoratchi qismlari mahbuslarni qiyash uchun hech bir qulay vaziyatni o'tkazib yubormaydilar va ular tomonidan qiyalmaga mahbusning o'zi bo'lмаган. Zonnenburg lagerida qiynoqqa soling

---

<sup>1</sup> Датнер III “Преступления немецко – фашистского вермахта в отношении военнопленных во второй мировой войне ” Москва.: изд. иностранной литературы 1963 . С176

mahbusning so'zlaridan : “Sakson mahbus yotadigan bir kamera. Eshik oldida turgan qo'riqchi to'satdan eshikda sovetlar yulduzining rasmi va uning yonida “P.S” harflari chizilganini ko'radi. Lagerda sobiq Landtag (ayrim o'lkalarni boshqarish uchun vaqtiga bilan yig'iladigan majlis)ning communist vakili saqlanmoqda. Eshikka chizilgan harflar uning ismi va familiyasiga to'g'ri keladi. Shu kamerada turuvchilarining hammasiga qarshi “Bolshevik tashviqotini yurgizganlari uchun” jazolash firqasi uyshtiriladi. Mahbuslarni “qo'zg'olonchilar” sifatida haftalab qiynash davom etadi. Keyinroq esa komendaturaga mahbuslarni qiynash uchun bahona bo'lsin uchun , sovet yulduzi qo'riqchilar tomonidan chizib qo'yilganligi aniqlanadi.”

Yana bir misol. Yangi keltirilgan mahbuslarga lagerning g'arbiy qismida “ta'lim” berilmoqda edi. Ta'lim natijasida o'n kishi hushidan ketib yiqilganligi sababli ularni zambilga solib olib ketadilar. Bu ta'limni yangi keltirilgan har bir guruh uchun maxsus tayyorlangan otryad o'tkazadi. Behush bo'lib yiqilganlarni lagerning sharqiy qismidagi lazaret(kasalxona)ga oborib tashlaydilar. Shu payt eski mahbuslar sharqiy qismda o'z vaqtlarini bekorchilik bilan o'tkazib turgan paytlarida ularning yonidan jabrlanganlarni olib o'tishadi va eski mahbuslardan biri “Mening o'rtog'im bor edi”<sup>1</sup> (bu so'zlar eski nemis soldatlari ashulasining so'zları bo'lib , unda soldat o'zining o'lган o'rtogí bilan xayrashadi) degan ashulani aytan bosholaydi. Qo'riqchi esa bunga ahamiyat bermaydi. Shu vaqt g'arbiy qism qo'riqchisi kelib sharqiy qism qo'riqchisiga – bu ashulani aytish qo'zg'olon akti ekanligini bayon qiladi. Uning fikricha bu ashulani aytish , uning g'arbiy qismda olib brogan “ta'lim” ishlariga qarshi mahbuslarning namoyishi emish. Qo'riqchilarining buyrug'i bilan ashula darhol to'xtatiladi. Sharqiy qismga yig'ilgan mahbuslar bekorchilik soatidan mahrum qilinib, boshlagan “qo'zg'olon”lari uchun 45 minut to'xtovsiz yugurishga majbur qilinadi. Ertasi kuni 1933 yilning 17 iyunida ham bu jazo o'z kuchida qoldi. Erta bilan soat 8 danoq sharqiy korpusda ish kuni boshlandi. Qo'riqchilar korpusning o'rtasida

---

<sup>1</sup> www.E-reading.org.ua

turgan holda , birinchi navbatda “yugur” komandasini berib mahbuslarni uzoq vaqt yogurtirib korpusni 10 marta aylanib chiqishga majbur qildilar. Shundan keyin komandalar kun bo’yi o’zgarib turadi : “tek tur” , “yot” , “devorga” , “marsh” , “tinch tur” ...

Mahbuslar o’zlarini harqancha dadil tutishga urunsalar ham 45 minut yugurgandan keyin bir qancha kishi behush bo’lib yiqiladi. Yana yarim soat o’tgandan keyin 20 kishi iyul quyoshiga chidolmay behush bo’lib yiqiladi. Komendaturaning buyrug’i bilan ularni lazaret qabul qilmaydi. Maxsus qism qo’mondoni shunda ham mahbuslarnitinch qoymaydi. Yiqilganlarga hech qanday yordam ko’rsatilmaydi va yo’lning chetiga chiqarib qo’yiladi. Qolganlar bilan “ta’lim” davom ettiriladi.

Mahbuslarning yuzida rang qolmagan, kiyimlari terdan chakka suv bo’lgan, yuzlaridan ter oqmoqda , to’zg’igan sochlari ko’zlariga tushgan. Ba’zilarining ko’zidan nuri ketib , jinnilarcha ma’nosiz qarardi. Shunday bo’lsada, “tek tur” , “yot” , “devorga” , “marsh” , “tinch tur” komandalari to’xtamasdan takrorlanib turardi.

Nihoyat komendant keladi va uni kutib olish uchun biroz vaqt to’xtab turiladi. Maxsus qism komandiri o’z boshlig’iga raport qiladi. Uning reportini yaqinda turgan mahbuslar eshitib turadilar : u yerda behush yotganlarga ishora qilib , “bular ta’limni hohlamay bosh tortib yotganlar” deb tushuntiradi.

Harqalay bu azoblar to’xtatiladi , ammo “qo’zg’olon” ko’targanliklari uchun katorga turmasining tartibi joriy qilinadi , tashqariga chiqib sayr qilish vaqtqi qisqartirilib yarim soatga keltiriladi , hech qanday so’z so’zlamay bir-birlaridan 5 qadam uzoqlikda yurishgagina ijozat beriladi.

Zonnenburg lagerida “qo’zg’olon” haqidagi mojarolar mana shu metodlar bilan maydonga keltiriladi.

Bu metodlar Zonnenburg konsentratsion lagerining sistemasiga kirib qattiq o'rnashgandir. Nemis xalqi va boshqa (natsistlar nazdida past qonli xalqlar) millatlar ana shunday ilojsiz bir vaziyatda qolib ketdilar.

Pomeraniyadagi Golnov shahridan Zonnenburg lageriga ko'chirilgan mahbuslarni qabul qilish vaqtida maxsus otryad leytenantı Sigizmund "Agarda sizlar qo'zg'olon qilsangiz, hech ikkilanmasdan sizlarning qoningiz bilan mana bu devorlarni qizilga bo'yab chiqaman"<sup>1</sup> deydi.

Bu shaxs maxfiy politsiya instruktori bo'lib, lager ham 1933 yil avgustdan beri uning qaramog'ida edi. Shu vaqtdan e'tiboran lagerlarning komendantlari ichki ishlari ministrligining vakillari hisoblanganlar. Mahbuslarni ommaviy ravishda qiynash konsentratsion lagerlarning asosiy qoidasiga aylandi.

Ommaviy qiynashlardan tashqari konsentratsion lagerlarda mahbuslarni "shaxsiy ishlab chiqarish", "so'roq" va "favqulodda so'roq" degan narsalar davom etardi. Buning uchun maxsus uskunalangan binolar bo'lган. U binolarda nimalar qilinganini hech kim eshitmagan va ko'rмаган. Qilingan ishlarning izi ham qoldirilmagan. Mahbuslarni devorlarga yopishib qolgan odam terisi va qonlarni yuvishga, sindirilgan tishlar va ko'zoynak parchalari va shunga o'xshash buymlarni yig'ishtirish va tozlashga majbur qilganlar.

Zonnenburg lagerining lazaretida qiynoqlar natijasida orqalari yiringlab yara bo'lган va boshqa bir qancha nogiron qilingan mahbuslar saqlangan. Lagerning doktori ulardan orqalari nega bunday holatga kelganini so'raganida ular yana qiyinalishdan qo'rqib, bod kasalidan deb javob bergenlar. Lekin o'sha vaqtda doctor oldida turgan lazaretning komendanti istehzo bilan ularning bu javobini izohlab : "ularning orqasiga Germanianing xaritasi tushirilgan"<sup>2</sup> deydi. Bu so'zni eshitgan doktor Shuett boshqa kasallarga qarashga ketadi.

---

<sup>1</sup> Datner Szymon "Zbrodine wehrmachtu na jencach wojennych w II swiatowej" Warszawa 1961.-S.219-220.

<sup>2</sup> Wolfgang Ruge Hindenburg porträt eines militaristen . VEB Deutscher Verlag der Wissenschaften Berlin, 1980.-S.182.

Imperializm urushida qatnashgan yuz foizlik nogiron Karl Shults bir necha oy lagerda yotadi. Bir kuni 1933 yil oktyabr oyida erta bilan shu darajada qattiq uradilarki , u behush bo'lib qoladi. U o'zini goyo okopga hujumga borgandek sezadi. U shu darajada qattiq qichqirib , o'zini har tomonga otadiki , yonidagi mahbuslar uni kamar bilan bo'g'lab qo'yishga majbur bo'ladilar. Bu holat 2 kun davom etgandan keyin uni politsiya kasalxonasiga jo'natadilar. Uning gunohi shundan iboratki u urush nogironlarining proletar tashkilotida maslahatchi bo'lib ishlaganligidir.

Lagerlarga borgan chet mamlakat muxbirlariga ko'rsatilgan narsalar , alohida uyshtirilgan manzaralardirki, ular haqiqiy ahvolga hatto yaqin ham yo'lamaydi.

Shaxsiy ishlab chiqarish. "Shaxsiy ishlab chiqarish"ning eng yuqori bosqichi so'roq vaqtlarida qo'llaniladi. Buning uchun ham alohida "kamera"lar bo'ladi. So'roq Gestapo vakili tomonidan olinadi. Konsentratsion lager komendaturasining vakili unga yordam beradi. So'roq beruvchilarni bu yerda ko'rgan va bilganlarini hech kimga aytmaslikka majbur qilishadi. Ular qynoq va tahdidlar bilan shu darajada qo'rqitiladiki , ular hatto uzoq vaqt o'tgandan keyin ham u haqida gapirishga qo'rqedilar.

Natsizmning eng jirkanch va g'ayriinsoniy xususiyatlardan biri shuki ularning qurbonlari faqatgina konsentratsion lagerlarga emas balki jinnixonalarga ham tashlanganlar.

Davlat dushmanlari. Keyingi davrlarda esa "davlatga qarshi jinoyatchi"larni qo'lga tushirish uchun Gestapo o'z qurbonlari ichidan chiqqan shaxslardan foydalanishgan. Ba'zilari o'zlarini qutqazish uchun so'roq vaqtlarida men "davlat dushman"larini ko'rsam taniyman deb javob beradilar. Undaylarni ko'chaga chiqazib yuborib orqasidan Gestapo harbiylari kuzatib brogan. Ularning biror tanishi ko'rib hech narsa o'ylamay boshini egib salom bersa , oradan bir necha

soat o'tgandan keyin uning uyiga borib yoki to'gridan to'g'ri ko'chaning o'zida uni "davlatga qarshi fiklash kasali yuqqan kishi" sifatida qamoqqa oladilar.

Natsislarning aytishicha go'yo u "davlat dushmanlari"ga qarshi kurashar emish. Davlat dushmanlari deb kimlar taniladi? Davlat dushmanlari jumlasiga birinchi navbatda kommunistlar va ularga xayrihoh ishchilar , imperialistik urushi davrida u urushga qarshi bo'lgan kishilar, 1918 yil noyabridan keyingi burjuaziya demokratiyasi davrida mehnatkashlarning demokratik huquqlarini cheklashga qarshi chiqqan kishilar kiradi.

Hatto natsizm tarafdarlarining ham natsional-sotsialistlar partiyasining hokimiyatni qo'llariga olishdan ilgari qilgan yolg'on va'dalarini bajarilishini talab qiluvchilar ham davlat dushmanlari hisoblangan.

"Demokratiya" davrida "davlatga xiyonat" qilganlari uchun katorga turmasida yotib , muddatlari tugaganligi sababli bo'shatilgan kishilar turma darvozasidan chiqishlari bilan Gestapo tomonidan qo'lga olinib konsentratsion lagerga yuborilgan. Gestaponing tushunishicha bundaylar davlatga qarshi jinoyat qilgan kishilar bo'lib tanilganidan , ularni 20 yillik muddat o'tgandan keyin ham jazolash, hatto o'lim jazosiga hukm qilish mumkin.

Dushmanlarning eng xavflisi kommunistik partiya va boshqa inqilobiy tashkilotlarning a'zolari hisoblanadi. O'zlarining chiqishlari bilan ma'lum bo'lgan ishchilar ommasining parlament vakillari garchi ular hokimiyatga Hitler kelishidan bir necha yil ilgari deputatlikdan ketgan bo'lsalarda "davlat dushmani" hisoblanishadi. Chunonchi 1931 yilda vakillik mandati bo'lmasan va Germaniyadan ketib Gollandiyada yashagan sobiq deputat Valter Shtekerning konsentratsion lagerda saqlanishi bunga misol bo'la oladi. SSSRga borib kelgan va unga xayrihoh bo'lganlar ham davlat dushmani hisoblanishgan.

Juda ko'p yahudiylar va umuman tomirlarida oriy irqining qoni "oliy" oqmay , "past" irqning qoni oqqan va sochlari sariq va ko'zlari ko'k bo'lmay , sochi va ko'zi qora bo'lganlar ham natsizm qurbonlari ichida bor. Bu kishilar

ayniqsa ular xalqning mehnatkashlar tabaqasidan bo'lsalar , natsistlar fikricha “German millatining dushmani” sanaladi.

Chet mamlakatlarda ham natsislarning ushbu aqidalariga mos kelmaganlar davlat dushmani hisoblanishgan.

Provokatsiya va jesuslik sistemasi. O'lim va vaxshiyarcha o'ch olish tahdidi faqatgina turma va konsentratsion lagerlarda saqlanganlar ustida bo'lmay , Germaniyada , hatto uning chegarasidan tashqarida yashovchi minglarcha xalq ustida doim osilib turmoqdalar. Provokatsiya va jesuslikning uzun tarmoqlari zavod va fabrikalarga , uylarga, ko'cha, bog'cha, qahvaxona, temiryo'l va umuman hamma yerga chuqur tarqalgan va hamma yerda Gestaponing agentlari jesuslik qilib yurgan.

“Ishonchsiz kishilar” ni topib qo'lga tushirish uchun gestapochilar provokatsiya usulidan keng foydalanganlar. Ta'qiqlangan kitoblar sotiladigan magazinlar Gestapo tomonidan ochilib , ularda gestapochilarning o'zлari shu kitoblarni sotadilarda, keyin kitob sotib olganlarni qamoqqa oladilar. Natsistlar tartibiga qarshi ba'zi “erkli” so'zlarni yozishga qo'l qo'ygan gazeta ham ular tomonidan nashr qilingan. Buning siriga tushunmay gazetaga muxbirlik qilgan va unga o'quvchi bo'lib yozilgan kishilar keyin konsentratsion lagerlarga jo'natilganlar.

Natsislarning maxfiy politsiyasi o'zining qo'liga tushgan inqilobchidan qiyash va tahdid yo'li bilan o'ziga kerakli ma'lumotlarni ololmasa, uni bilgan kishilar u haqida nima gapirar ekan deb, yolg'onдан u inqilobchi o'ldi, deb xabar tarqatadi. Ko'p ishchilar o'lgan kishiga Gestapo nimayam qilardi deb, uning kommunistlarning kurashchisi ekanligini va uning ishlarini eslab gapiradilar. Gestapo shu yo'l bilan material to'plab , undan ayblash akti tuzildi va shu aybnomaga asoslanib ularni o'lim jazosiga hukm qilganlar.

1932 yil 6 noyabrdagi saylovdan so'ng yirik monopoliyalar, bankirlar va generallar uzil-kesil fashistlar tomoniga o'tdilar. Ular so'l kuchlarning ittifoqi

tuzilib qolishidan cho'chib, Gindenburgga maxsus xat jo'natganlar. Xatda Gitlerni darhol reyxkansler (imperiya bosh vaziri) etib tayinlash talab etilgan edi.

1933 yilning 4 yanvarida Hitler Germaniyaning yirik va yetakchi sanoatchilari, sarmoyadorlari bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda Hitler kansler bo'lishi kerak, degan qarorga kelindi<sup>1</sup>. 1933 yilning 30 yanvarida Gindenburg A. Gitlerni Germaniyaning reyxkansleri etib tayinladi. Aslida esa, 1933 yilda Germaniyada davlat boshqaruvinining bir (burjua demokratik) shaklining boshqa bir shakli, ya'ni totalitar diktatura bilan almashinushi yuz berdi.

Fashizm-bu, davlat boshqaruvinining terrorchi totalitar shakli, hukmron doiralarning eng reaksiyon va agressiv kuchlari manfaatini ifodalovchi oqim. U dastlab Yevropada (Italiyada) vujudga kelgan. "Fashizm" atamasi "fashion" so'zidan olingan bo'lib, "to'da", "uyushma", degan ma'nolarni anglatadi. 1919 ytilda Italiyada birinchi jahon urushining sobiq askarlari o'z manfaatlarini, haq-huquqi himoya qilish uchun kurashuvchi tashkilot tuzdilar. Bu tashkilot "Fashi di kombattimento" (Kurash uyushmasi", Quroldoshlar kurash uyushmasi") deb nom olgan, u turli joyda turli nom bilan, masalan, Germaniyada "natsistlar", deb atalgan.

Fashizmning mohiyatini uning quyidagi belgilari yaqqol tasvirlab beradi. Uning birinchi belgisini o'ta millatchilik tashkil etadi. Fashistlar uchun millat manfaati boshqa har qanday manfaatdan ustun turadi. Ular jamiyatni sinflarga bo'lmaydi. Xo'sh nima uchun millatchilik Germaniyada va Italiyada boshqa davlatlardagiga nisbatan kuchli bo'lgan edi?

Ular birinchi jahon urushi oqibatlarini o'zлari uchun qattiq haqorat, milliy tuyg'uning mislsiz tahqirlanishi, deb qabul qilgan edilar. Nemis millati Versal shartnomasi shartlariga toqat qila olmayotgan edi.

---

<sup>1</sup>Гейден К Путь НСДАП . Москва .: изд. Эксмо 2004 , С.72

Italyan millati esa o'zini "g'oliblar ichidagi mag'lub" deb hisoblardi. Chunki Antanta tarafida urushda ishtirok etgan g'olib Italiya urushda ko'zlagan maqsadlariga erisha olmagan edi.

Germaniyada millatchilik irqchilik bilan qoshilib ketgan edi. Natsistlar fikricha, butun insoniyat tarixi-bu, turlimillatlar va irqlar kurashi tarixi edi. Bu kurashda faqat kuchlilargina g'olib chiqadi. Mag'lublar qismati yo o'lim, yo g'oliblarga bo'ysunishdir. Qudratli irq-bu nemis millatiga mansub bo'lgan oriy, nordik irqdir. Ularning tarixiy missiyasi butun dunyoga hukmron bo'lishdir.

Fashizmning yana bir belgisi uning o'ta agressivligidir. O'ta millatchilik va irqchilik sharoitida shunday bo'lishi tabiiy edi. Fashizmga xos bo'lgan yana bir belgi davlat hokimiyyati oldida sig'inish, unga sajda qilish edi. Natsistlar uchun bu milliy rujni mujassamlashtiradigan qudrat, barqarorlik va tartibning kafolati edi.

Natsistlar-totalitar tartib ya'ni jamiyat hayotining barcha sohalari to'la davlat nazoratiga olingan tartib tarafdori edilar. Germaniya natsizmining ommaviy asosini Birinchi jahon urushida eng ko'p jabr ko'rgan tabaqalar-hunarmandlar, dehqonlar, urush faxriylari, ishsizlar, ertangi hayoti qanday bo'lishidan cho'chib qolgan ishchilar tashkil etdi. Yirik kapitalistlar esa natsizmni qo'llab-quvvatladi.

Natsistlar ichki soyosatining asosiy yo'nalishini natsizmning mohiyati belgilab berdi. Binobarin, natsistlar hokimiyyat tepasiga kelgach, A. Gitler hukumati birinchi navbatda siyosiy demokratiyani yo'q qilishga kirishdi. Bu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun har qanday jirkanch vositalarni ishga soldi. Xususan, siyosiy partiyalar faoliyatiga barham berish uchun 1933 yil 23 fevralda Reyxstag binosiga o't qo'yishni rejalashtirdi va aybni kommunistlarga ag'darib bolgariyalik G. Dimitrovni sud qildi. Lekin uni oqlashga majbur bo'ldi. Natsistlar ochiq terror yo'liga o'tdilar.

Natsizmning kelajagini tarbiyalash maqsadida “Gitleryugen” deb ataluvchi yoshlar tashkiloti tuzildi. Davlat apparatida puxta tozalash o’tkazildi. Natsizmga ozgina bo’lsa-da muxoliflikda shubha qilinganlar xizmat vazifalaridan bo’shatildi. Ularning o’rnini natsistlar partiyasi a’zolari egalladilar.

Natsistlar o’z ichki siyosatda maktab o’quvchilari tarbiyasiga katta e’tibor bergenlar. Maktabga qadam qo’yilgan davrdan boshlaboq “irqiy dunyoqarash”, “irqiy ustunlik” va german qonini sof saqlashga e’tiqod tarbiyalana boshlagan. Maktablarda faqat natsizmga xizmat qiluvchi o’qituvchilargina ishlagan. 1933 yilning may oyidan boshlab 18-25 yoshlilar uchun ichki mehnat majburiyati joriy etildi. 1935 yil mart oyidan boshlab esa umumiy harbiy majburiyat to’g’risidagi qonun kuchga kirdi.

Shunday qilib, Germaniya ikki jahon urushi oralig’ida vayronalikdan g’arb mamlakatlari yordamida tiklandi, taraqqiy qildi. Lekin natsizm tinchliksevar kuchlardan ustun kelib, ikki yuzlamachi siyosat yuritdi. Dunyoga hukmron bo’lishiga intildi. Bu yo’lda tajovuzkor davlatlar bilan til biriktirdi. Dunyoni bo’ysundirishga intilgan Germaniya urush olib borishga tayyorgarlikni nihoyasiga yetkazdi.

## **2-BOB. Nemis xalqi II-Jahon urushi davrida**

### **2.1. II-Jahon urushi davrida nemis xalqining ijtimoiy ahvoli.**

Germanianing II-jahon urushiga tayyorgarlik ko'rishi bevosita nemis xalqining yashash tarziga ham ta'sir o'tkazdi. Gitlerning Germaniyani qurollantirish rejasiga asosan barcha zavod-fabrikalar to'liq harbiylashtirildi. Mamlakatda ishsizlar soni kamayishiga erishildi. Xalq xo'jaligida yangi , zamonaviy texnikalar joriy etila boshlandi va xalqning ahvoli birmuncha yaxshilandi. Aslida bularni juda ham yaxshi edi deyish noto'g'ri lekin jahon inqirozidan chiqqan Germaniya uchun shuning o'zi ham yaxshi ko'rsatkich edi. Amerikaning yirik sarmoyadorlari , konsernlar xo'jayinlari Germaniyani moliyaviy tomondan qo'llab quvvatlay boshlashdi.Germaniyadagi harbiy texnika va qurol-yarog' ishlab chiqarishga mo'ljallangan zavodlari I-jahon urushidan oldingi ko'rsatkichlardan 15-20 barobar ko'p foyda ola boshladi.Germaniya tomonidan bosib olingan hududlar 1942 yilda “yevropaning harbiy xo'jaligi”ga aylantirildi<sup>1</sup>. Germanianing harbiy sohaga ajratgan yillik mablag'i Yevropa mamlakatlarning hammasini harbiy sohaga ajratgan mablag'ini qo'shib hisoblaganda ularnikidan bir necha barobar ziyod edi.Bu ko'rsatkich yil bo'yи ortib borardi.1933 yil 1oktyabrda suvosti kemasi injenerlari maktabi ochildi<sup>2</sup>. 1935 yil 29 iyunda esa U-1 nomli suvosti kemasi suvgaga tushirildi<sup>3</sup>.1939yil boshiga kelib esa Germaniya armiyasi o'sha davrdagi eng zamonaviy qurollar bilan qurollangan armiyaga ega edi.Bir so'z bilan aytganda Germaniya dunyo urushiga tayyor edi.Boshqa Yevropa mamlakatlari esa I-jahon urushidan va 1929-1933yillardagi moliyaviy-

---

<sup>1</sup> Вольфрам Фишер “Европа : экономика , общество и государство 1914-1980” Москва 1999. С.82.

<sup>2</sup> Williamson Gordon “Wolf pack” The story of the U-boat in World War II “ Osprey published Ltd 2005 in Great Britain P.10.

iqtisodiy inqirozdan keyingi ayanchli ahvolda edi. Aholisining turmush tarzi, iqtisodiy ahvoli, eng muhimi harbiy salohiyati ayanchli ahvolda edi. Shundan keyin Yevropa qanday kuch xavf solayotganini tushunib yetdi.

Agar II-jahon urushida asosiy harbiy harakatlar Yevropaning sharqiy qismida olib borilganligini ko'radigan bo'lsak, bu ham Gitlerning siyosiy nayrangleridan biri edi. Chunki Yevropaning g'arbiy va markaziy qismi sanoat va iqtisodiy markazi edi. Gitlerning maqsadi Yevropani bosib olib uni Germaniyaga qaram qilish va u yerdagi sanoat korxonalari va zavodlarini Germaniya foydasiga ishlashini nazorat qilishdan iborat edi. Shuning uchun ham Gitler asosiy harbiy harakatlarni Yevropaning sharqiy qismida va Boltiqbo'yida olib bordi.

1929 yilda reyxsverning qurollanish rejasi amalga oshirish boshlandi. Nemis generali Guderianning tasdiqlashicha, Germaniya 1938 yilgacha nemis general shtabi mudofaviy himoyalanish siyosatini olib bordi. Lekin nemis generali nohaq edi. Chunki birinchi bo'lib nemis generallari yangi agressiv urushni 1919 yildayoq rejalashtirishgan edi. Bu paytda esa Gitler hali siyosiy hayotda endi ishtirok etishni boshlagan edi.

1919 yil aprelda yuqori qo'mondonlik shtabi boshlig'i vazifasini bajaruvchi general Grener nemis hukumatiga Germaniyaning hozirgi ahvoli to'g'risida bayonot berdi. Uning fikricha : - "Germaniya hozirda judayam ayanchli ahvolda, agar vaziyatdan chiqish yo'lini qidirsa, Germaniyaning kelajagi haqida o'ylasa bo'ladi". U oldiga katta xaritani qo'yib, qilichiga suyanib Germaniya chegarasini kuzatdi : - "Agar Elzas-Lotaringiyaning hech bo'lmasa bir qismi olinmasa, Germaniya navbatdagi urushda hech qachon ishtirok etolmaydi"<sup>1</sup>.

"Shuni alohida qayd etish lozimki, - deb ta'kidladi general Grener, hozirgi mushkul ahvolda Germaniya o'zining ta'sir doirasini yo'qotmoqda. Agar hech

<sup>1</sup> Безыменский Л "Германские генералы – с Гитлером и без него" Москва.: изд. соц. – эконом. литературы 1961 С.8

kim Germaniyaga yordam qo'lini cho'zmasa, nemis xalqi boshqa davlatlarga qaram bo'lib qolishi hech gap emas. Germaniyani buyuk davlat sifatidagi mavqeini saqlab qolish uchun qudratli ittifoqchi kerak. Shundagina mamlakat o'z mavqeini tiklay oladi ”<sup>1</sup>.

Hali “Versal” shartnomasi imzolanmasidan oldin 1919 yil aprel oyida Germaniya maxfiy diplomatiyasi AQSH maxfiy xizmati bilan aloqa o'rnatgan edi. AQSHning asosiy vazifasi Germaniyani moliyaviy axvolini yaxshilash va nemis armiyasini zamonaviy qurol-yarog' bilan qurollantirish edi. AQSHning yirik sarmoyadorlari, yirik korporatsiyalar xo'jayinlari Germanyaning bu taklifini qo'llab quvvatlashdi. Ya'ni Germaniya 30-yillarning oxirida xavf solishni boshlagan bo'lsada, lekin bu harakatlar I-jahon urushi tugagan paytdayoq boshlangan edi. 30-yillarning boshida esa Germaniya ham iqtisodiy, ham harbiy, ham siyosiy jihatdan jahon urishiga tayyor edi. Gitler esa ushbu jarayonlarni amalga oshiruvchisi edi xolos. Gitler o'z-o'zidan Fyurer bo'lib qolgan emas. Gitlerning o'tmishi, kelib chiqishi, iste'dodi va liderlik qobiliyati aynan natsistlar parametrlariga mos kelardi. Lekin Gitler natsistlar kutganidanda dahshatliroq shaxs edi. 1932 yil 6 noyabrda o'tkazilgan saylov natijalarini 1932 yil 31 iyuldagagi saylov natijalari bilan solishtiradigan bo'lsak, natsistlar partiyasi 2 million ovozni yo'qotdi va ularning asosiy raqibi hisoblangan kommunistlar partiyasi qo'shimcha 600 ming ovoz va reyxstagdan 100 ta mandatga ega bo'lishdi. 1933 yil mart oyida o'tkazilgan saylovlarda natsistlar partiyasi yetarli ovoz olishga muvaffaq bo'lмаган bo'lsada Gitler kansler etib tayinlandi va 1934 yilda natsistlar diktaturasi o'rnatildi.

Natsistlar hokimiyyati o'rnatilgandan keyin ular asosiy e'tiborni mamlakat aholisining hayotini yaxshilashga emas balki, natsizmning poydevorini mustahkamlashga harakat qildilar. Buning uchun esa eng avvalo armiyaning qudratini oshirish lozim edi. Gitlerning o'zi urushda qatnashgan harbiy shaxs

---

<sup>1</sup> O'sha yerda 12.B.

bo'lgani uchun qudratli armiyaning vazifasi nimalardan iborat ekanligini juda yaxshi tushunib yetgan.

Birinchi navbatda qilinishi kerak bo'lgan vazifa armiya tizimini isloh qilish edi. Germaniya reyxsveri oliy qo'mondonlik tarkibining 1927 yildagi holati quyidagicha edi<sup>1</sup>:

	Umumiy	Dvoryanlar sinfidan	Burjuaziya sinfidan
Generallar	42	25	17
Polkovniklar	105	45	60
Harbiy vazirlikda	724	162	562
Kavaleriyada	596	265	331
Quruqlikda	1512	265	1247
Artilleriyada	589	61	528

Gitler tomonidan harbiy mutaxassislar tayyorlash tizimi yaratildi va ular natsizm g'oyasi bilan sug'orildi. Elbaning sharqiy qismida joylashgan Ostelbiya hududida (Pomeraniya, Sileziya, G'arbiy va Sharqiy Prussiya) yunkerlar saroyi, qalin o'rmon bilan o'ralgan harbiy mashg'ulot maydonlari va harbiy ofitserlar tayyorlaydigan lagerlar joylashgan edi. Bu yerda asosan nemis pomeshchik sinfi vakillari qaysiki burjua Germaniyada 13.7 million akr yerga ega mulkdorlar

---

<sup>1</sup>Безыменский Л “Германские генералы – с Гитлером и без него” Москва.: изд. соц. – эконом. литературы 1961.-С.14.

farzandlari o'qitilgan. Tajribali ofitserlar yosh dvorvan bolalarni tarbiyalagan. Dastlab – tayyorlov o'quv yurti (10 yoshdan) , keyin Gross-Lixterfelddagi kadet o'quv yurti, keyin polkda o'qishni davom ettirishgan. Qisqa muddatli tayyorlovdan keyin harbiy akademiyada va saralanganlari general shtabda xizmatni davom ettirishgan.Genshtabdagi xizmat esa turli harbiy qismlarga komandirovkalar va yosh ofitser kadrlarga ta'lim berish bilan o'tardi.Harbiy qurol aslahalarni puxta o'zlashtirgan zabitlar esa qurollarni takomillashtirish va yangi qurol aslahalar yaratish maqsadida ilmiy izlanishlar olib borishardi.

1919 yil iyunda imzolangan “Versal” tinchlik shartnomasi reyxsver (nemis armiyasi)ni 100 mingga kamaytirib, nemis generalitetini va nemis siyosiy ta'sir doirasini pasytirib qo'ydi.

1945 yildan keyin tarixchilar, harbiylar va publisistlar : “Gitler qachon Jahon urushiga tayyorgarlik ko'rishni boshlagan edi ? ”<sup>1</sup>, degan savolni bir necha bor o'rta ga tashlashdi. 1945 yil iyunda bir necha sovet ofitserlari asosiy nemis harbiy asirlariga shu savolni berishdi. Ularning javobi quyidagicha bo'ldi : - SSSRga qarshi urush haqida 1940 yilning oxirida qat'iy qarorga kelingan”. Asir olingan general Gering esa : “Men SSSRga hujum qilish xabari urushdan 1.5-2 oy oldin xabardor bo'ldim”<sup>2</sup>. Bu savol Nyurnberg jarayonida nemis harbiy jinoyatchilariga berilgan asosiy savol edi. Bu haqida dunyo baribir haqiqatni bilolmadi. Bu ma'lumot esa Gitler tomonidan 1941 yil 22 iyungacha sir saqlangan. Bu haqidagi turli hujjatlar turli davrlarda o'rganilib turli ma'lumotlar taqdim etilgan. Hammasi bir birini rad etadigan va bir birini takrorlamaydigan ma'lumotlar edi.

1939 yilda gross-admiral Reder II-Jahon urushi haqidagi qaydlarini quyidagi so'zlar bilan boshladi : -“Fyurer allaqachon SSSR masalasini hal qilib qo'ygandi. 1937-1938 yilda esa SSSRni bosib olish rejasini tuzishga kirishdi”<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Филатов Г.С История фашизма в Западном Европе . Москва.: изд. Наука 1978.- С.47.

<sup>2</sup> Житорчук Ю.В “Так кто же виноват в трагедии 1941 года” Москва.: изд. Полигон 2008.-С.77.

<sup>3</sup> Wolfgang Ruge Das ende von Weimar Monopolkapital und Hitler . Dietz Verlag . Berlin, 1983.- B.237.

1939 yil 5 yanvar. Gitler Polsha tashqi ishlar vaziri Bek bilan Ukrainianing iqtisodiga qiziqishini bildirib suhbatlashdi.

1939 yil 23 may. Gitler generalitet bilan majlis o'tkazdi.” ... agar G'arb bilan kelishmovchilik yuzaga kelsa , bu judayam yaxshi, bu vaqtda biz Sharq masalasini hal qilishimiz kerak ... ”<sup>1</sup>.

1939 yil 23 noyabr. . Gitler generalitet bilan majlis o'tkazdi.” Biz qachonki masalasini hal qilganimizdan keyingina SSSRga qarshi tura olamiz”<sup>2</sup>.

1939 yil dekabr oyining boshida maxfiy xizmat generali Robert Ley fashist Italiyasining poytaxtiga keldi va tashqi ishlar vaziri Chiano bilan Gollandiya masalasida suhbatlashdi.

1940 yil 22 iyulda Gitler generalitet bilan maxfiy majlisda Polsha masalasini hal qildi. Polshaning asosiy yo'llari, harbiy aerodromlari va ko'priklari ayanchli ahvolda bo'lganligi uchun Polshaga hujum qilmasdan uni jangsiz taslim qilish rejasini tuzildi. Shunda so'ng Gitler 1940 yil 9 avgustda “Aufbau Ost” nomli shifrlangan qaror qabul qildi va Polshaning avtomobil va temir yo'l, harbiy aerodrom va ko'priklarini ta'mirlashni buyurdi. Shifrning tagida esa SSSRga hujum to'g'risidagi “Otto” va “Barbarossa” maxfiy rejalarini e'lon qildi.

Shuning uchun ham Gitler “Zeeleve” rejasi to'xtatib butun kuchni “Barbarossa”ga ya'ni SSSRga qaratishni buyurdi.

Natsistlar Germaniyasining maxfiy rejalarida II-Jahon urushi quyidagi rejalar asosida olib borilishi ko'zda tutilgan edi :

1. “Feliks operatsiyasi” – Gibraltarga hujum;
2. “Izabella operatsiyasi” – Portugaliyaga hujum;

---

<sup>1</sup> O'sha yerda B.243-247

<sup>2</sup> O'sha yerda B.268-272

3. “Atilla operatsiyasi” – Shimoliy Afrikaga hujum va Tripoliga hujum qilish to’g’risidagi “Zonnenblyumi” operatsiyasi.

Gitlerning rejasiga ko’ra “Barbarossa” rejasidan keyin yuqoridagi rejalar ni amalga oshirish ko’zlangan edi. Urush arafasida Gindenburg shunday so’zlarni qayd etgan : “Bizning urushdan maqsadimiz nemis xalqining ahvolini yaxshilash emas balki Germaniyaning iqtisodiy ahvolini yaxshilash va Germaniyaning harbiy salohiyatini yuksaltirish va Germaniyaning I Jahon urushidan oldingi obro’yini tiklash. Buning uchun bizga xalqimizning vatanparvarligi va qat’iyatliligi kerak bo’ladi<sup>1</sup>”. Gitlerning yuqoridagi rejalar ni amalga oshirilgandan so’ng ular bosib olingan hududlarni quyidagicha reyxskomissariatlarga bo’lishni ko’zlagan edilar :

Niderlandiya reyxskomissariati

Norvegiya reyxskomissariati

Ukraina reyxskomissariati

Ostland reyxskomissariati

Moskoviya reyxskomissariati

Kavkaz reyxskomissariati

Turkiston reyxskomissariati

---

<sup>1</sup> Житорчук Ю.В “Так кто же виноват в трагедии 1941 года” Москва.: изд. Полигон 2008 С.78-79.

## **2.2. Nemis xalqining urushda ishtiroki va umumiylahohi.**

Ikkinci jahon urushi (1939-1945). 1939 yildagi urusholdi siyosiy inqirozi. Ikkinci jahon urushi xavfi Yaponiya, Italiya va Germaniyaning agressiv harakatlarni olib borishi natijasida yuzaga keldi. Xavfsizlik tizimini yaratishda Sovet Ittifoqining tashabbusi Angliya va Fransiya tomonidan qo'llab – quvvatlanmadidi.

1938 yil 29 sentyabrda imzolangan Myunxen bitimi ishtirokchilari:

Gitler	– Germaniya	Chemberlen - Angliya
Dalade	- Fransiya	Mussolini – Italiya

Myunxen bitimida quyidagi masalalar ko'rib chiqildi va qaror qabul qilindi:  
Chexoslavakiyaning taqdiri uning ishtirokisiz hal etildi:

- Sudet viloyati Germaniyaga qo'shib berildi
- Bogemiya va Moraviya – Germaniya protektorati
- qo'g'irchoq «Slovakiya davlati» tashkil etildi
- sharqiy qismiga Polsha va Vengriya qo'shinlari kiritildi

O'z-o'zidan ko'rinish turibdiki Myunxen bitimida Germaniya hal qiluvchi kuch sifatida ko'zga tashlandi va Germaniya va uning ittifoqchilari foydasiga qaror qabul qilindi. Myunxen bitimi natijasida SSSR halqaro miqyosda yakkalanib qoldi va SSSRga qarshi Sharqda natsistlar bosqiniga yo'l ochib berdi.

O'zaro hujum qilmaslik haqida Germaniya bilan imzolangan bitimlar:

- 1938 yil aprelda - Angliya
- 1938 yil dekabrda - Fransiya

Bu Germaniyaga Sharqiy Yevropada bemalol harakat qilish erkinligini berdi.

G'arb davlatlarining «aralashmaslik» siyosati

- 1939 yil 15 mart - Chexoslavakiya mustaqil davlat sifatida barxam topdi
- 1939 yil mart - Litvaga qarashli Klaypeda (Memel) port shahri bosib olindи

- 1939 yil aprelda - Gitler Polsha davlatini yo'q qilish rejasini maqulladi. Polshaga qarshi agressiyaning boshlanishi 26 avgustga belgilangan edi.

- 1939 yil aprel - italyan fashistlari Albaniyani bosib oldilar (shuning uchun Millatlar Ligasidan chiqarib yuborilgan)

Ingliz – fransuz – sovet muzokaralari.

- 1939 yil 17 aprel - Sovet hukumati Garb davlatlariga o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risida uch tomonlama shartnomaga tuzishni taklif etdi.

Bunda Boltiq va Qora dengiz oralig'ida joylashgan davlatlarga agressiya bo'lган taqdirda yordam ko'rsatish ko'zda tutilgan edi.

- 1939 yil may - Gitler va Mussolini harbiy va siyosiy ittifoq haqida «Po'lat pakti» tuzishgach Moskvada uch tomonlama muzokaralar boshlandi va ushbu muzokaralarga rozilik bildirildi.

- 1939 yil may - Angliya bozor munosabatlarida hamkorlik qilish va ta'sir doirasini kuchaytirish yuzasidan dunyoni qayta bo'lib olish borasida maxfiy muzokaralar olib bordi.

Urushning sababi va tavsifi.

- Bu urushda Germaniyaning ittfoqchilari – Italiya va Yaponiya edi.
- Polshani siyosiy kartadan yo'q qilish
- Fransiyani tor – mor etish
- Angliyani qit'ada siqib qo'yish
- Yevropa resurlariga ega bo'lismi
- «Sharqqa yurish» qilib, Sovet Ittifoqini yo'qotish va uning yerlarini egalab «Yangi hayotiy zarur hudud» larni qo'lga kiritish.

Polshaga hujum. G'arbiy Yevropadagi «g'alati» urush

- 1939 yil 1 sentyabrda – Germaniya Polshaga hujum boshladi. Polsha o'zining milliy birligini yo'qotmaslik uchun kurashga otlangan birinchi mamlakat edi. 23-25 sentyabrda taslim bo'ldi. 17-18 sentyabrda Polsha hukumati va harbiy qo'mondonlik Ruminiya hududiga ko'chdi. Polsha prezidenti Rodz-Smiglo mamlakatdan qochib ketdi.

- Angliya va Fransiya Germaniyaga urush e'lon qildi, lekin hech qanday

harbiy harakatlar olib bormadi. Bunday holat 1940 yil aprelgacha (8 oy) davom etdi (g'alati urush-«zittskrig»). Yevropada urush boshlanganda AQSh o'zining betarafligini e'lon qiladi.

- 1939 yil 17 sentyabr - «maxfiy qo'shimcha protokol» imtiyozlaridan foydalanib, sovet hukumati o'z qo'shinlarni G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiya hududiga kiritdi. Bu yerlar 1921 yildagi Riga tinchlik shartnomasiga ko'ra Polshaga qarashli edi. Sovet qo'shinlari 1919 yilda belgilangan «Kerzon chizig'i» chegarasida to'xtadi.

- 1939 yil 28 sentabrda SSSR va Germaniya tomonidan do'stlik va chegara to'g'risidagi imzolangan shartnomaga muvofiq<sup>1</sup>:

- «har ikkala davlat manfaatlari» chegarasi San va G'arbiy Bug daryolari bo'ylab belgilandi.

- Polsha hududi Germaniya okkupatsiyasida qoldi.

- Ukraina va Belorussiya yerlari esa SSSRga qo'shib olindi.

Germaniyaning G'arbga tomon agressiyasi.

- 1940 yil aprel - nemis qo'shinlari Daniya (bittayam o'q uzmasdan taslim bo'ldi) va Norvegiyani bosib oldi («Vezeryubung» operatsiyasi).

- 1940 yil 10 mayda - Gollandiya, Belgiya va Fransiyaga hujumi boshlandi («Gelb» operatsiyasi). Myunxen siyosatining barbob bo'lishi ingliz «tinchliksevarlari»ning lideri Nevill Chamberleni iste'foga chiqishga majbur etdi. Angliyada koalitsion hukumat tuzildi, Uinston Cherchill (1874 – 1965) bosh vazir bo'ldi.

- nemislar «Majino chizig'i»ni shimoldan chetlab o'tib Ardennani zabt etdi, Maas daryosida ittifoqchilar frontini yorib o'tdi. Nemis tank diviziylari La - Mansh qirg'oqlariga chiqib oldi. Ingliz va fransuz qo'shinlari asosiy kuchlardan kesib tashlandi va Dyunkerk yoqasida dengizga siqib borildi. «Ochiq shahar» deb nom olgan Parij gitlerchilarga jangsiz topshirildi.

- 1940 yil 22 iyun - Kompen sulhiga ko'ra:

- Fransiya ikki hududga bo'lindi: istilo qilingan (shimoliy va markaziy

---

<sup>1</sup> Illova № 10 rasm

qismi) va istilo qilinmagan (janubiy qismi), ammo to’la Germaniyaga bo’ysundirildi.

- Fransiyaning mustamlakalari o’zida qoldirildi.
- Fransiyaning iqtisodi Gemaniya harbiy qo’shiniga ishlashi lozim.
- Fransiya harbiy kontributsiya to’lashi shart.
- Fransiya hukumati Vishi shahriga ko’chib o’tdi.
- Emmigratsiyada general Sharl de Goll boshchiligidagi «Ozod Fransiya» vatanparvarlik tashkiloti harakat boshladi.
- natsistlar ingliz shaharlarini tinimsiz bombardimon qilishdi. Inglizlarni yengolmasligiga ko’zi etgach, tinchlikka erishish maqsadida desant operatsiyalaridan voz kechdi.
- 1941 yil mart - lend-liz qonuni: prezident F.D. Ruzvelt taklifiga muvofiq Kongres ya’ni AQSh harbiy ehtiyojlariga to’g’ri keladigan mudofaani uyuşhtirayotgan mamlakatlarga zayomga yoki ijara qarol- aslaha va harbiy materiallarni berish to’g’risida qaror qabul qildi.
- 1941 yil mart - Italiya-nemis qo’shinlari hujumga o’tib, Tobrukda ingliz garnizonini qamal qildi. Britaniya qismlari Misr chegaralariga tomon chekinishdi.
- 1940 yil - Germaniya , Italiya , Yaponiya «Po’lat pakti» SSSR, Buyuk Britaniya, AQSh va boshqa mamlakatlarga qarshi qaratilgan edi.
- 1940 yil 18 dekabr - «Barbarossa» rejasini tasdiqladi. Rejaga ko’ra:
- «yashin tezligida urush» (blitskrig) olib borilib, SSSRni bir yarim – ikki oy ichida tor – mor keltirish.
- nemis qo’shinlari uch yo’naliishda (Leningrad, Moskva va Kiev) harakat qilishi lozim.
- Ural tog’larigacha borib, Sibir hududlarini bombardimon qilish.

Bolqonda natsistlar agressiyasi

- 1940 yil oktyabr - German qo’shinlari Ruminiyaga bostirib kirdi. Bu yerda general Antoneksuning fashistik diktaturasi o’rnatildi.
- Vengriya bo’ysundirib, Xorti diktatorlik rejimiga yo’l ochib berdilar.

- 1941 yil mart - Bolgariya uchlik paktiga qo'shib olindi.

- 1941 yil aprel - Yugoslaviya va Gretsiyani istilo qilishdi.

Germaniyaning SSSRga hujumi

- 1941 yil 22 iyun – natsistlar Germaniyasi urush e'lon qilmasdan Sovet ittifoqiga hujum boshladi. Italiya, Vengriya, Ruminiya, Slovakiya, Finlandiya (sattelitlar) Germaniya tomonidan turib urishdi. Frankochilar Ispaniyasi «Zangori diviziya» degan diviziyasini sovet – German diviziyasiga yuborib, gitlerchilarga yordam berdi. Hitler tomonidan tasdiqlangan «Ost» bosh rejasida SSSR hududida slavyan aholisini yo'q qilish va Sibirga surgun qilish mo'ljallangan edi. Bosqinchi armiya zarbasi, Stalin taxmin etgandek, janubiy-g'arbdan emas, balki Smolensk orqali Moskva yo'nalishiga qaratilgan edi.

Antigitler koalitsiyasining tuzilishi

- 1941 yil iyul - SSSR bilan Angliya Germaniyaga qarshi urushda birgalashib harakat qilish haqida bitim.

- 1941 yil 29 sentyabr 1 oktyabrd - SSSR, AQSh va Angliyaning Moskva konferentsiyasida Angliya va Amerika tomonidan Sovet Ittifoqiga yaqin 9 oyda qurol aslaha va strategik materiallar yetkazib berish haqida qaror qabul qilindi. AQSh hukumati Sovet Ittifoqiga 1 mldr. dollar miqdorida kredit berdi va lend-liz haqidagi qonunning amalini SSSRga ham joriy etdi.

- 1941 yil dekabr - Moskva ostonasidagi jangda nemis-fashist qo'shinlariga qattiq zarba berildi. Gitlerning «Yashin tezligida» urush qilish rejasi barbos etildi. Vermaxt 1939 yil sentyabridan buyon birinchi bor mag'lubiyatga uchradi.

- 1942 yil 1 yanvar - Vashingtonda 26 davlat, shu jumladan, SSSR, AQSh va Angliya BMT Deklaratsiyasini imzoladilar.

- 1942 yil 26 may - Londonda Sovet-Angliya shartnomasi imzolandi.

- 1942 yil may-iyun - Vashingtonda Sovet - Amerika muzokalarari bo'lib, bu muzokalarlar 11 iyunda bitim imzolash bilan yakunlandi. Har ikkala tomon bir-birlarini mudofaa anjomlari, axborot bilan ta'minlab turish hamda savdo – sotiq va iqtisodiy hamkorlik majburiyatini oldilar. German armiyasining 70 foiziga yaqini Sharqiy frontda to'plangan edi. SSSR uchun eng og'ir kelgan

urushning 1942 va 1943 yillarida ikkinchi frontni ochish muammosi hal bo'lmay qoldi.

Afrika, Osiyo va Tinch okeanida urush harakatlari

- 1941 yil noyabri - nemis qurolli kuchlari qismlarining Shimoliy Afrikadan Sharqiy frontga tashlanishi, inglizlarning qarshi hujumga o'tishiga imkoniyat yaratdi va ular Tobruk qamalini bartaraf etdilar. Kirienaikaning butun hududi ozod etildi.

- 1942 yil yanvar - fashistlar ingliz qo'shinlarining tarqoqligidan foydalanib, hujum boshladilar va bu hujum davomida Livyaning bir ismini yana qaytadan egalladilar. Inglizlar Misr hududiga chekinishga majbur bo'ldilar. Al-Amayn yonidgi mudofaa marrasida (Aleksandriyadan 100 km Garbda) fashistlarning Suvaysh kanaliga tomon siljishi to'xtatildi.

- 1942 yil oktyabr - natsistlarning asosiy kuchlari sovet-german frontiga tortilishi general Montgomeri boshliq ingliz qo'mondonligiga rezervlarni to'plab, hujum boshlash uchun imkon berdi. Dushman Misrni tashlab ketdi.

- 1942 yil 8 noyabr - ittifoqchilar Fransiya Marokashiga va Jazoirga yirik qurolli kuchlarni tushirdilar. Bu yerlar u vaqtida Vishi ma'murlarining nazorati ostida edi. Germaniya va Italiya qo'shinlari Fransiyaning okkupatsiya qilinmagan qismini ham bosib oldi.

- SSSR butun urush davomida Uzoq Sharq chegaralarida 32-tadan 52-tagacha quruqlikdagi qo'shin diviziylarini, yirik artilleriya, aviatsiya va flot kuchlarini saqladi. U bu bilan Kvantun armiyasini siqib turdi va taxlitda Xitoya yordam ko'rsatdi.

- 1942 yil may - Marjon (Korollova) orollaridagi janglar natijasida Yaponiya bitta avinosets, kreyser va 70-dan ortiq samolyotini yo'qotdi. Bu AQShning urushda qozongan birinchi g'alabasi edi.

Stalingrad jangining xalqaro ahamiyati

- 1942 yil iyul - Don va Volga oralig'ida, Kavkaz yo'nalishida janglar olib borildi.

- 1942 yil 19 noyabr - Qizil Armiya qarshi hujumga o'tdi. Volga uchun

kurash 1943 yil 2 fevral - tugadi, dushmanning juda ko'p qismi tor-mor keltirildi. Stalingrad jangi – ikkinchi jahon urushining borishida tub burilishning boshlanishi bo'ldi.

- 1943 yil may - Ittifoqchilar fashistlarni ta'qib qilib borib, Kirenaika va Tripolitaniyani, so'ngra esa Tunisni ishg'ol qildilar. Shimoliy Afrikadagi italyan-german qo'shnlari batamom taslim bo'ldi.

- 1943 yil iyun - Frantsiya milliy-ozodlik komiteti (FMOK) tuzildi. Bu komitetda general Sharl de Goll rahbarlik rolini o'ynadi.

- Yevropaga La-Mansh orqali bostirib kirishning eng katta muxolifi Cherchill edi. Cherchill Bolqon mamlakatlariga askar tushirishni taklif etdi va bu mamlakatlarni «Yevropaning yumshoq poshna» si deb atadi.

#### Fashist-militaristlar blokining parchalana boshlashi

- 1943 yil yozda - nemis qurolli kuchlar o`rnashib olgan Kursk ostonasida shiddatli janglar boshlandi. Qizil armiya Stalingrad jangida qo`lga kiritgan o`z tashabbusini yanada mustahkamladi. Kursk ostonasidagi g'alaba keyinroq Dnepr uchun bo`lgan janglar urushda tub burilishni nihoyasiga yetkazdi.

- 1943 yil avgust - ittifoqchilar 1944 yil 1 maydan e'tiboran Fransiyaga qo'shin kiritishga qaror qildilar.

#### Italiyaning taslim bo`lishi

- 1943 yil iyul - ingliz-amerika qo'shnlari Sitsiliya orolini bosib oldilar. Italiyaning hukmon doiralari «Mussolinisiz fashizm» tartibini saqlab qolib, harbiy-monarxiya diktaturasini o`rnatishga urinishdi. Mussolini hukumat rahbarligidan tushirildi va hibsga olindi. Yangi hukumatni marshal Badolo tuzdi. U ittifoqchilar qo`mondonligi bilan muzokaralar olib bordi va 3 sentyabrda yarash haqidagi bitim imzolandi. Angliya va Amerika qo'shnlari hech bir qarshiliksiz Appenin yarimorolining janubiga tushdilar. Bir necha kundan so`ng Italiya taslim bo`ldi. Germaniyaning Yevropadagi asosiy ittifoqchisi Italiyaning taslim bo`lishi fashist-militaristlar blokining yemirilishini boshlab berdi. Nemis - fashist qo'shnlari okkupatsiya qilib olgan hududlarda qo`g'irchoq «Italiya sotsial Respublikasi» vujudga keldi. U «Salo Respublikasi» (asosiy vazirliklar

joylashgan shaharning nomi bilan) deb ataldi.

### Tehron konferentsiyasi

- 1943 yil oktyabr - Moskvada bo`lib o`tgan uch mamlakat tashqi ishlar vazirlarining konferentsiyasi AQSh , SSSR , Angliya mamlakatlari rahbarlarining birinchi uchrashuvini tayyorladi.
- 1943 yil 28 noyabr - 1 dekabr - Eron poytaxti Tehronda bo`lib o`tdi. Konferentsiyada I.V.Stalin, F.Ruzvelt, U. Chechill qatnashdilar.

### Kun tartibi:

- urush muddatlarini qisqartirish ;
- G`arbiy Evropada ikkinchi frontni ochish. Shunday qilib, birinchi marta antigitler koalitsiyasining umumiy xarbiy strategiyasi ishlab chiqildi.

### Yevropada ikkinchi frontning ochilishi

- 1944 yil 6 iyun - ittifoqchilarning general Duayt Eyzenxauer qo`mondonligidagi ekspeditsion qurolli kuchlari Fransianing Normandiya sohillariga tushdi Bu urush maboynidagi eng yirik desant operatsiyasi edi. Germaniya ikki frontda jang qilishga majbur bo`ldi.

- 1944 yil 19 avgust - Parij ozodlik qo`mitasi va Umumbirlik konferentsiyasi chaqirig`iga ko`ra, poytaxtda qurolli qo`zg`olon boshlandi, buning natijasida natsistlar gornizoni to-mor keltirildi. 1944 yilning oxiriga borib, ittifoqchilar gitlerchilarni Fransiya hududidan, Belgiya va markaziy Italiyadan haydab chiqardilar.

### «Reyx» inqirozining chuqurlashuvi

- 1944 yil 20 iyul - bir guruhi generallar, oliy amaldorlar va moliya magnatlari Gitlerga qarshi fitna uyushtirdilar. Polkovnik Shtauffenberg bomba qo`ygan edi. Biroq suiqasd qilishga urinish muvaffaqiyatsiz bo`lib chiqdi.

- 1944 yilning ikkinchi yarmida - Germaniya o`zining uch ittifoqchisidan - Ruminiya, Bolgariya va Finlandiyadan mahrum bo`lib qoldi. Germaniya yakkalanib qoldi.

- 1944 yil dekabr - gitlerchilar G`arbiy frontda Ardenin rayonida hujumga o`tib, ittifoqchilar qo`shinlariga jiddiy zarba berdilar. Chechill yordam so`rab,

Stalinga murojaat qildi.

- 1945 yil yanvar - Qizil Armiya Boltiq dengizidan to Karpatgacha – keng front bo`ylab kuchli hujumga o`tdi. Fevralning oxirigacha davom etgan bu hujum Polshani ozod qilish bilan yakunlandi. Ular Rur sanoat viloyatida nemis qo`shinlarining yirik guruhini qurshovga oldilar va taslim etdilar.
- 1945 yil 4-11 fevral – Qrim konferentsiyasida «Katta uchlik» uchrashuvi (I.V.Stalin, F.Ruzvelt, U.Cherchill).

Konferentsiya qarorlari:

- yengilgan Germaniya va ozod qilingan Yevropaga nisbatdan birgalikda siyosat yurgizish rejasi ishlab chiqildi.
  - natsizmni butunlay yo`q qilish.
  - fashizmning harbiy kuchlari va bosh shtabini yo`q qilish.
  - fashist Germaniyasi rahbarlarini adolatli jazolash.
  - Germaniya hududini okkupatsiya zonalariga bo`lib olish (uchta zona).
  - Germaniya reparatsiya to`lashi shart (lekin miqdori belgilanmadi).
  - «Ozod qilingan Yevropa haqida Deklaratsiya» qabul qilindi.

Germaniyaning so`zsiz taslim bo`lishi.

- 1945 yil aprel – sovet armiyasi natsislarning Oder va Neyse daryolari bo`yidagi mudofaasini yorib o`tdi va Berlinga hujum boshladi. G’arbdan hujum qilayotgan Amerika-ingлиз qo`shinlari Elba daryosi tomon siljib bordi.
- 1945 yil 25 aprel - Torgau rayonida ittifoqchilar uchrashdilar. Sovet qo`shinlari Germaniya poytaxtini qurshab olishni tugalladi.
- 1945 yil 2 may - shturm bilan Berlinni oldi. Berlin olinishidan ikki kun avval imperiya devonxonasining yer osti bunkerida yotgan Gitler o`z-o`zini o`ldirdi.
- 1945 yil 8 maydan 9 mayga o`tar kechasi - Berlinda german qo`mondonligining vakillari Germaniyaning so`zsiz taslim bo`lganligi haqidagi aktni imzoladilar.
- 1945 yil 17 iyuldan 2 avgustga qadar - Potsdam konferentsiyasi (Berlin

yaqinida) (I.V. Stalin, G.Trumen va U.Chechill). Garri Trumen Ruzvelt vafotidan so`ng 1945 yil aprelda prezidentlik lavozini bajarishga kirishgan edi. Konferentsiya ishi davomida parlament saylovlarida leyboristlar g`alaba qilgandan keyin Buyuk Britaniya bosh ministri bo`lgan Kliment Ettli Cherchill o`rniga ishtirok etdi. Potsdam konferensiyasi urushdan keyin dunyoning tuzilishiga bagishlangan edi.

Konferentsiya qarorlari:

- Sharqiy Prussiyaning sohil bo`yi qismini Kengsberg bilan SSSRga, qolgan qismini esa Polshaga berishga qaror qilindi.
- Polshaning G`arbiy chegaralari Oder (Odra) va G`arbiy Neyse (Niselujitsa) daryolari bo`ylab o`tishi haqida ham qaror qabul qildi.
- 1945 yil 2 sentyabr - Tokio qo`ltig`ida Amerika linkorni «Missuri» da natsistlar Germaniyasining ittifoqchisi Yaponianing so`zsiz taslim bo`lganligi haqida akt imzolandi.

Ikkinci jahon urushi yakunlari.

- Urushda Yevropa, Osiyo va Afrikaning 61-ta davlatlari ishtirok etdi.
- Harbiy harakatlar 40-ta davlatlar hududida bo`lib o`tdi.
- umumiy moddiy talofotlar 4 trln. dollardan ortdi.
- harbiy chiqimlar 1 trillion 117 mln. dollar.
- urush 50 mln.dan ziyod odamlar umrini o`zi bilan olib ketdi.
- urushda qatnashgan mamlakatlar aholisining soni 1.7 mlrd.dan ortiq.
- urush harakatlari bo`lgan hududlarning umumiy maydoni 22 mln. kv.km dan ortiq.
  - qurolli kuchlarga safarbar qilinganlar soni 110 mln.dan ortiq.
  - o`ldirilganlar va yarador bo`lib o`lganlar 60 mln.dan ortiq.
  - yarador va nogiron bo`lganlar 90 mln.dan ortiq.

## **2.3. Urusning nemis xalqi turmush tarziga ta'siri.**

1945 yil 2 sentyabrda Germaniyaning ittifoqchisi Yaponiyaning taslim bo'lishi bilan II-jahon urushi nihoyasiga yetdi. Urushdan so'ng urushning asosiy sababchisi Germaniya Qrim va Potsdam konferensiyalardan keyin okkupatsiya zonalariga bo'lindi. Har bir zonada ma'muriyatni okkupatsiya qo'shinlari bosh qo'mondoni boshqarardi. Natsistlar Nyurenberg sudida jazolandi. Germaniyaning va nemis xalqiniing urushdan keyin umumiy ahvoli judayam achinarli holga kelib qoldi. Mamlakat hududi va aholisining 1/3 qismi (sharqiy qismi) SSSR okkupatsiya qilgan zonada , 2/3 qismi esa AQSH , Angliya va Fransiya tomonidan okkupatsiya qilingan zonada qoldi. Germaniyaning g'arbiy qismi mamlakatning aholisi zich va sanoati rivojlangan qismi edi. Sharqiy qismi esa SSSR namunasidagi rivojlanish yo'lidan ketdi. Butun Germaniyaga tegishli masalalar esa to'rtta bosh qo'mondondan iborat Nazorat kengashining yakdil ovoz berish tamoyili asosida hal etilar edi.

Urushdan keyin Germaniya iqtisodi butunlay ishdan chiqdi. Faqatgina ittifoqchilar yetkazib bergan oziq-ovqat mahsulotlarigina nemislarni ochlikdan saqlab qoldi. Ittifoqchilar (asosan AQSH) Germaniya iqtisodini tiklash uchun moliyaviy ko'mak berishdi. Mamlakatda ishsizlik , ochlik avjiga chiqdi. Sanoat deyarli to'xtagan edi. Yonilg'i mahsulotlari yetishmas , elektrostansiyalar umuman ishlamas edi. O'n minglab odamlar uy-joyidan ayrligandi. Boshpanasi borlar ham juda achinarli bir holatda kun kechirardi. Konsentratsion lagerlar va qamoqxonalarda ezilgan antifashistlar uylariga kela boshladи. Natsizm davrida emigratsiyada yurganlar ham Germaniyani qayta tiklash va yangi demokratik davlat tashkil etishda faol qatnashish uchun vatanlariga qayta boshlashdi.

II Jahon urushi nafaqat Germaniya yoki Yevropa mamlakatlari balki, butun dunyo mamlakatlarini qiyin ahvolga solib qo'ydi. Hatto urushda ishtirok etmagan davlatlar ham iqtisodiy zarar ko'rishdi.

Nemis xalqi esa ikkala jahon urushida mag'lubiyatga uchrab juda ko'p qiyinchiliklar va muammolarga duchor bo'lgan , og'ir iqtisodiy girdoblarga

tushib qolgan millat sifatida baholanadi. Lekin shunga qaramay nemis xalqi o'zining qat'iyatliligi va matonati bilan har qanday mashaqqatli davrlardan ham o'zining mehnatsevarligi va ishbilarmonligi bilan chiqib ketgan. II jahon urushi esa nemis xalqining boshiga juda ko'p kulfatlar yog'dirdi va bu narsa hozirda ham qisman bo'lsada davom etmoqda . Chunki II jahon urushining asosiy sababchisi sifatida va dunyo xalqlariga uyushtirgan ommaviy qirg'inlari tufayli hozirgi kunda ham babs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Natsistlar hokimiyati davrida yevreylarga nisbatan uyushtirilgan ommaviy qirg'in ya'ni davlat miqyosida antisemitizm siyosati yuritilgani sabab yuz minglab yevreylar yo'q qilindi va g'ayriinsoniy tajribalarda qo'llanildi. Yevreylarga nisbatan qilingan bunday siyosat natijasida ularga yetkazilgan zarar hozirga kunda ham yo'q qilingan har bir yevrey kishisining oila a'zosiga tovon puli to'lanib boriladi.

Urushdan keying davrdagi nemis xalqining turmush tarzi ayanchli ahvolda bo'lsada , asta-sekin yaxshilana bordi. Germaniya federalizm yo'lidan bordi va qisqa davr ichida o'zining urushdan oldingi darajasiga chiqib oldi va hatto ayrim sohalarda rivojlangan mamlakatlardan ham o'zib ketdi. Lekin bu o'zgarishlar faqatgina g'arbiy qismda edi.

To'g'ri sharqiy qism ham rivojlandi, lekin u sobiq SSSR yo'lidan ketdi va bir qancha sohalarda g'arbiy Germaniyadan ortda edi. Bu narsa ayniqsa nemislarning sharqiy qismdan g'arbiy qismga qochib o'tishi bilan baholanadi. Ikki nemis davlati birlashgan paytda urush qoldirgan izlar ko'zga yaqqol tashlandi. Chunki rivojlanish darjasasi turlicha bo'lgan ikki mamlakatning birlashishi juda ko'p nomutanosibliklarni va kelishmovchiliklarni keltirib chiqardi.

## Xulosa

Xulosa o'rnida shuni alohida qayd etishni lozim deb bilamiz , urushga nemis xalqi aybdor degan fikrdan yiroqmiz. Chunki natsizm siyosatidan nemis xalqining o'zi ham aziyat chekkan. Natsistlarning asosiy maqsadi esa yer yuzida hukmronlik o'rnatish , birinchi navbatda yevreylarni keyin esa boshqa xalqlarni ham yer yuzidan yo'q qilish , dunyoda "Uchinchi reyx"ni hukmron qilish va boshqalar edi. Hatto ularning "Barbarossa" nomli rejasida millatlarni yo'q qilish ro'yxati mavjud bo'lган ekan. Yahudiylar bu ro'yxatda birinchi o'rinda , boshqa millatlar qatorida o'zbek millati ham mavjud bo'lib oltinchi o'rinda ekan. Polsha hududida yo'q qilinishi kerak bo'lган millatlar qirg'inini amalga oshiruvchi "o'lim fabrikalari" barpo etilgan (masalan Osvensim konslageri). Lekin natsistlarning bu rejali amalga oshmadi. Hozirgi kunda ham Berlin Davlat Tarix muzeyida Germaniya tarixining 1933-1945 yillardagi bosqichi yaxshi yoritilib, ustidan qora parda tortib qo'yilgan va shunday yozuv ilib qo'yilgan: "Wir sind schuldig Menschheit machte den Fall für diesen Zeitraum!" ("Biz bu davrda qilingan ishlar uchun bashariyat oldida aybdormiz! " ).

Nemis xalqi I jahon urushidagi mag'lubiyatdan so'ng , natsistlarning "Uchinchi reyx" haqidagi balandparvoz gaplaridan ruhlanib , o'zining asriy orzu- umidlari va kelajagini "Uchinchi reyx"da ko'rishdi. Aslida esa natsistlarning asosiy maqsadi nemis millatining qat'iyatliliqi , mehnatsevarligi , shijoati va vatanparvarligan ustalik bilan foydalanib , o'zining g'arazli rejalarini amalga oshirish edi. Ular hatto o'zlariga qarshi chiqqanlarga nisbatan g'ayriinsoniy munosabatda bo'lishdi. Lekin birmuncha vaqt nemis xalqining ahvoli yaxshilangan. Ishsizlik deyarli bartaraf etilgan. Turli xayriya jamg'armalari va kasaba uyushmalari faoliyat yuritgan. Hatto sport seksiyalari tashkil etilgan. Shaxsan Gitlerning o'zi 1936 yilgi XXI yozgi olimpiadani o'tkazishga byudjetdan 25 million reyxsmarka ajratadi va sport inshootlari qurilishiga e'tibor qaratadi. Dunyo jamoatchiligi esa buni demokratik davlat rahbariga xos ishlar deya baholashadi. Aslida ham Gitlerning maqsadi dunyo xalqlari ko'z o'ngida

shunday shaxs sifatida gavdalanish edi. Lekin buning orqasidan keladigan kulfatlar hech kimning xayoliga kelmasdi.

Nemis xalqiga nisbatan qilingan g'ayriinsoniy munosabatning biri Germaniya hududidagi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami nogironlar , yuqumli kasalliklar bilan kasallanganlar va qariyalar (ularning nazdida “davlatga hech qanday foydasi tegmaydigan shaxslar”) shafqatsizlarcha yo’q qilingani bo’lsa, ikkinchisi natsizmni qoralagan nemis ziyorolarining qatag’on qilinishidir. Mamlakatdan qochib ulgurganlari esa Gestapo maxfiy agentlari tomonidan baribir tutib o’ldirilgan.

Shunday bir tahlikali vaziyatda nemis xalqi II jahon urushiga sababchi millat sifatida dunyo xalqlari ko’z oldida namoyon bo’lardi. II jahon urushi davrida esa nemis xalqi yana og’ir kunlarni boshidan o’tkazdi. Urushga sarflangan milliardlab marka pullar nafaqat nemis xalqi turmush-tarzini ayanchli ahvolga solib qo’ydi , balki urushdan keyin ham uning tovonini to’lash ana shu oddiy xalq gardaniga tushdi. Urush natijasida mamlakat iqtisodi izdan chiqdi, mamlakat aholisi ochlik , turli yuqumli kasalliklardan aziyat cheka boshladi. Konsentratsion lagerlardan qaytgan tutqunlar , nogironlar va aholining mehnatga yaroqsiz qatlami va bolalar mamlakat iqtisodini ko’tarish uchun yana birlashib harakat qila boshlashdi. Okkupatsion zonalarga bo’lib olingandan keyin esa nemis xalqi ikkiga bo’lindi va ikki xil tuzum , ikki xil rivojlanish yo’lidan ketdi. Qaysidir ma.noda mamlakat ikkiga bo’lindi. Mamlakat okkupatsiya bosh qo’mondonlari nazorati ostida qolib ketdi. Lekin shunga qaramay nemis xalqi o’zining asriy orzu-umidlaridan chekinmadi va matonat bilan yangi demokratik, zamonaviy davlat qurish yo’lida birlashdi.

So’nggiso’z o’rnida shuni ta’kidlamoqchimizki, dunyo xalqlari boshiga kulfat yog’dirgan tarixning ushbu qora kunlaridan tegishli xulosa chiqarish lozim. Chunki hozirgi kunda ham neofashist, yosh fashistlar degan nomlar bilan turli jangari guruhlar ko’zga tashlanib turibdi. Ularning bu harakati o’z vaqtida bartaraf qilinmas ekan, YER SAYYORASI yana bir endi butunlay boshqacha

qiyofadagi natsislarni , boshqacha qiyofadagi Gitlerni maydonga chiqishiga dosh bera olmaydi.

Shunday ekan milliylik , milliy o'zlik degan tushunchalarni millatchilik bilan adashtirmaslik lozim. Zeroki , YER SAYYORASI unda yashayotgan har bir tirik jonning VATANidir.


## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998.
2. Karimov I.A “Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch”- T.: Ma'naviyat 2008.
3. Karimov I.A “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T.: “O'zbekiston”, 2011.-440 b.
4. Сборник статей. Гитлеровская Германия проигрывает битву за Атлантику. Ташкент.: Госиздат , 1941.16 стр.
5. Безыменский Л “Германские генералы – с Гитлером и без него” Москва.: изд. соц. – эконом. Литературы, 1961
6. Бондаренко В.П ,Резонова П.И Антифашистское движение сопротивления в странах Европы в годы второй мировой войны .Москва.: Соцэкиз , 1962
7. Борисов Ю.В История зарубежных стран . Москва.: изд. Международная отношения 1967
8. Вольфрам Фишер “Европа : экономика , общество и государство 1914- 1980” Москва 1999
9. Воробьевский Ю Аненербе – оккультный меч рейха. Москва .: изд. Эксмо 2004 , 352 с
10. Гейден К Путь НСДАП . Москва .: изд. Эксмо 2004 , 374 с
11. Датнер III “Преступления немецко – фашистского вермахта в отношении военнопленных во второй мировой войне ” Москва.: изд. иностранной литературы , 1963, 485 с
12. Деларю Ж История Гестапо. Москва.: изд. Полигон 2007, 328 с

13. Житорчук Ю.В “Так кто же виноват в трагедии 1941 года” Москва.: изд. Полигон 2008 , 480с
14. Иовчук М.Т Немецкая буржуазная философия после Великой Октябрьской социалистической революции. Сборник статей . Москва.: изд.иностр.лит. 1960, 330 с
15. Ирвинг Д Атомная бомба Адольфа Гитлера / перевод с английского Б.Соколова . Москва .: изд. Эксмо 2004 , 416 с
16. Кара-Мурза А.А Тоталитаризм как исторический феномен . Сборник статей. Москва.: Филос. изд. СССР , 1989
17. Киреев В Антифашистское движение сопротивления в странах Европы в годы второй мировой войны. 1939-1945. Москва.: Указатель советских библиогр. изданий , 1976
18. Лиддел Гарт Б Вторая мировая война. Москва.: изд. Наука 1976.
19. Пленков О.Ю Миры нации против мифов демократии : немецкая политическая традиция и нацизм . Москва.: изд. Русский Христианский гуманитарный институт, 1997
20. Телицын В Святой Грааль и третий рейх . Москва.:изд. Эксмо 2004
21. Уинстон Черчилль:Вторая мировая война.Книга первая. Москва.: 1991
22. Филатов Г.С История фашизма в Западном Европе. Москва.: изд.Наука 1978
23. Хозиков В Забытый кумир фюрера. Москва .: изд. Эксмо 2004 , 736 с
24. Шлепаков А.Н, Коваль В.С, Клоков В.И Антифашистская солидарность в годы второй мировой войны . Киев.: изд.Наук думка , 1987
25. История Второй Мировой войны 1939-1945 гг. Том 3, - М., 1978.

26. Сборник статей .Гитлеровская оккупация в Литве. Вильнюс.:изд.Минтис , 1966
27. Советская историческая энциклопедия. Том 15, - М., 1974.
28. Datner Szymon “Zbrodine wehrmachtu na jencach wojennych w IIswiatowej” Warszawa 1961 (polyak tilida)
29. Williamson Gordon “Wolf pack” The story of the U-boat in World War II Osprey published Ltd 2005 in Great Britain
31. Winkel E “Gestapo” Warszawa 1934
32. Wolfgang Ruge Hindenburg porträt eines militaristen . VEB Deutscher Verlag der Wissenschaften Berlin, 1980
33. Wolfgang Ruge Das ende von Weimar Monopolkapital und Hitler . Dietz Verlag . Berlin, 1983
34. [www.Gitler13.ru](http://www.Gitler13.ru)
35. [www.Hrono.ru](http://www.Hrono.ru)
36. [www.Manger.ru](http://www.Manger.ru)
37. [www.E-reading.org.ua](http://www.E-reading.org.ua)

**Ilova**




Uchinchi reyxning bayrog'i va gerbi

A handwritten signature in black ink, appearing to read "Adolf Hitler".

Adolf Hitler

(1889-1945)



Vyacheslav Molotov va Ioaxim fon Ribbentrop

Moskva 1939 yil 23 avgust

Germaniya va SSSR o'rtasidagi hujum qilmaslik  
shartnomasi

ДОГОВОР С НЕНАПАЛЕНИЕМ МЕЖДУ ГЕРМАНИЕЙ И СОВЕТСКИМ СОЮЗОМ.

Правительство СССР и  
Правительство Германии  
Руководимые желанием укрепления дела мира между СССР и  
Германией и исходя из основных положений договора о нейтралите-  
тете, заключенного между СССР и Германией в апреле 1926 года,  
пришли к следующему соглашению:

**Статья I.**

Обе Договаривающиеся Стороны обязуются воздерживаться  
от всякого насилия, от всякого агрессивного действия и вся-  
кого нападения в отношении друг друга, как отдельно, так и  
совместно с другими державами.

**Статья II.**

В случае, если одна из Договаривающихся Сторон окажется  
объектом военных действий со стороны третьей державы, другая  
Договаривающаяся Сторона не будет поддерживать ни в какой  
форме эту державу.

**Статья III.**

Правительства обоих Договаривающихся Сторон останутся  
в будущем в контакте друг с другом для консультации, чтобы  
информировать друг друга о вопросах, затрагивающих их общие  
интересы.

F110051

Статья 1У.

На один из Договаривающихся Сторон не будет участвовать в какой-либо судьбе группировки держав, которая прямо или косвенно направлена против другой стороны.

Статья У.

В случае возникновения споров или конфликтов между Договаривающимися Сторонами по вопросам 1го или иного рода, обе стороны будут разрешать эти споры или конфликты исключительно мирным путем в порядке дружественного обмена мнениями или в нужных случаях путем создания комиссий по урегулированию конфликта.

Статья У1.

Настоящий договор заключается сроком на десять лет с тем, что поскольку одна из Договаривающихся Сторон не денонсирует его за год до истечения срока, срок действия договора будет считаться автоматически продленным на следующие пять лет.

Статья УЛ.

Настоящий договор подлежит ратификации в возможно короткий срок. Смена ратификационными грамотами должна произойти в Берлине. Договор вступает в силу немедленно после его подписания.

Составлен в двух оригиналах, на немецком и русском языках в Москве, 23 августа 1939 года.

W. Чайковский За правительство  
Пролетарской Рабочей Германии:  
Генерал W. Чайковский

F110052

СИКРЕТНЫЙ ДОПОЛНИТЕЛЬНЫЙ ПРОТОКОЛ.

При подписании договора о ненападении между Германией и Советской Социалистической Республикой нынеподписаны ими уполномоченные обеих сторон обсудили в строго конфиденциальном порядке вопрос о разграничении сфер обоюдных интересов в Восточной Европе. Это обсуждение привело к нижеследующему результату:

1. В случае территориально-политического переустройства областей, входящих в состав Прибалтийских государств (Сингапур, Эстония, Латвия, Литва), северная граница Литвы одновременно является границей сфер интересов Германии и СССР. При этом интересы Литвы по отношению Вильянской области признаются обеими сторонами.

2. В случае территориально-политического переустройства областей, входящих в состав Польского Государства, граница сфер интересов Германии и СССР будет приблизительно проходить по линии рек Нарева, Вислы и Сана.

Вопрос, является ли в обоюдных интересах желательным сохранение независимого Польского Государства и каковы будут границы этого государства, может быть окончательно выяснен только в течение дальнейшего политического развития.

Во всяком случае, оба Правительства будут решать этот вопрос в порядке дружественного обоюдного согласия.



F19 184

3. Население юго-востока Европы с советской стороны подчеркивается интерес СССР к Бессарабии. С германской стороны заявляется о ее полной политической независимости в этих областях.

4. Этот протокол будет сохраняться обеими сторонами в строгом секрете.

Германскою Москва, 23 августа 1939 гда.  
Французскою стороны  
Германою  
Германою  
Германою

F19 185



Map 1 – Planned division of Central Europe according to the Molotov-Ribbentrop Pact

- National borders as of 1938
- Soviet republic borders as of 1938
- ~~~~ Planned borders
- █ Soviet Union █ Germany
- █ Soviet sphere of influence
- █ German sphere of influence
- █ Other countries and territories

Map 2 – Actual territorial changes 1939-1940

- National borders as of 1940
- Soviet republic borders as of 1940
- ~~~~ National borders as of 1938
- █ Annexed by the Soviet Union
- █ Annexed by Germany
- █ Occupied by Germany

#### Abbreviations:

B – Bessarabia, BM – Protectorate of Bohemia and Moravia, BSSR – Byelorussian SSR, Czech. – Czechoslovakia, D – Free City of Danzig, EP – East Prussia, ESSR – Estonian SSR, Est. – Estonia, GG – General Government, Hun. – Hungary, K – Karelia, KFSSR – Karelo-Finnish SSR, Lat. – Latvia, Lith. – Lithuania, LtSSR – Lithuanian SSR, LvSSR – Latvian SSR, M – Memelland (Klaipéda Region), MSSR – Moldavian SSR, RSFSR – Russian SFSR, S – Salla, SK – Slovakia, UkrSSR – Ukrainian SSR, V – Vilnius Region, Yugo. – Yugoslavia

Molotov-Ribbentrop shartnomasi bo'yicha sharqiy Yevropaning bo'lib olinishi

# HITLER DEAD

*Fuehrer Fell at CP, German Radio Says;  
Doenitz at Helm, Vows War Will Continue*

Korean media announced that eight-day-old Adoor Hithan had died. Also, Kurt Russell, former commanding officer of the 10th Mountain Division, has passed away at age 80.

Because nearly a million people have already left the country because, like me, and millions like him, Americans would continue to leave here. The last car I picked up was driven by a man who had been gone for more than a week so it would never be seen again.

**Churchill  
Hails Peace  
Is at Hand**



The correspondence for our year are drawn at from the Public Archives Bank. The sum amounting after deduction of postage, weights, &c. will be £1000 of the funds of our club.

"A lot of people out there," he points out, "are afraid of change." A little more, "the people involved have to have a certain level of experience managing the Latino people. We can't just assume."

He gave a short speech at the podium in the hall. Finally, the speaker, who had been sitting in the audience, turned around and said, "We're glad to have you here."

The author is also grateful to the editor of *Philosophical Books* for his kind review.

## Gitlerning vafoti gazeta muqovasida